

004

518

LLAEVA SH. A., DELOV T.E., PARDAYEVA G.A.

LATEXGA KIRISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI
TEKNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Sadullaeva Sh.A., Delov T.E., Pardayeva G.A.

LATEXGA KIRISH

**AKT sohasida kasb ta‘limi bakalavriat ta‘limi
yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan**

**Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan**

**Toshkent
“METODIST NASHRIYOTI”
2024**

UDK: 004.77(075.8)

BBK: 32.973я7

S 18

Sadullaeva Sh.A.

**Latexga kirish. O'quv qo'llanma / Delov T.E.,
Pardayeva G.A./ – Toshkent: “METHODIST NASHRIYOTI”, 2024.
-112 b.**

O'quv qo'llanma LaTeX paketidagi maket xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Har bir mavzu zarur nazariy, ko'plab misollar va rasmlarni o'z ichiga oladi. LaTeX bilan tajribani shakllantirish uchun nazariy material amaliy vazifalar bilan birga keladi.

O'quv qo'llanma AKT sohasida kasb ta'limi bakalavriat ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Учебное пособие посвящено анализу особенностей верстки в пакете LaTeX. Каждая тема содержит необходимый теоретический минимум, множество примеров и иллюстраций. Для формирования опыта работы с LaTeX теоретический материал сопровождается практическими заданиями.

Учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата по направлению Профессиональное образование в сфере ИКТ

The tutorial is devoted to the analysis of layout features in the LaTeX package. Each topic contains the necessary theoretical minimum, many examples and illustrations. For the formation of experience with LaTeX, theoretical material is accompanied by practical tasks.

The textbook is intended for undergraduate students majoring in ICT.

Taqrizchilar:

Raxmonov Z - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU, “Amaliy matematika va intellektual Texnologiyalar” fakulteti, (DSc), dots.

E.Nazirova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, “Multimedia texnologiyalari” kafedrasi, (DSc), dots.

***Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda
“538”-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.***

ISBN 978-9910-03-096-3

© Sadullaeva Sh.A. va boshqalar., 2024.

© “METHODIST NASHRIYOTI”, 2024.

KIRISH

Tez rivojlanib borayotgan kompyuter axborot texnologiyalari bizning kundalik hayotimizning barcha jabhalarida sezilarli o'zgarishlarni olib kirmoqda. Barchamizga sir emaski, xozirgi vaqtda jamiyatni axborot kommunikasiya texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Umuman olganda, har bir mamlakatni rivojlanishini zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini sohalarga joriy qilinishi bilan baholash mumkin. Mamlakatimizda xami buning uchun bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 apreldagi "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyixalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3682-son qarori, 2018 yil 14 iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3855-son qarori, 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-4851-son qarorlari ijrosi ayni damda bugungi kun yoshlarining raqamli texnologiyalardan o'z soxalarini rivojlantirishda unumli foydalanishlari kerakligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga yosh izlanuvchilarning chet el nufuzli jurnallariga o'z ishlanmalari hamda maqolalarni taqdim qilishda raqamlashtirilgan dasturlardan foydalanish dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi.

Ma'lumki, xozirgi kunda dasturiy ta'minot yoki dasturiy mahsulotni yaratish dasturiy ta'minot ishlab chiquvchi mutaxassislar jamoasi orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, xozirda, har bir dasturiy ta'minot yoki dasturiy mahsulotni ishlab chiqishga amaliy loyiha sifatida qarash mumkin.

Ushbu maruzalar matni TEX va LATEX yordamida xujjat yaratish bosqichlari, Xujjat stili, \documentclass buyruq parametrlari, Xujjatlarni formatlash, Hoshiya maydoni bilan ishlash, Jadvallar bilan ishlash. Parametrlari, LaTeX ning grafik imkoniyatlari, Matematik formulalar bilan ishlash, Murakkab formulalar bilan ishlash. Daraja va indeks. Kasr sonlar. Diakrik belgilar. Operatorlar. Qavslar va ularning o'lchamini berish. Ajratuvchi belgilar o'lchamlari. Matritsalarni yaratish. Matritsaga qiymatlar kiritish. Formula ichiga matn yozish. Murakkab

strukturali xujjat yaratish, LATEX dasturlash tizimida dasturlash kabi ma'lumotlardan iborat bo'lgan mavzular bo'yicha talabalarga etkazilishi shart bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar to'la qamrab olingan.

Maruzalar matni LaTeX dasturini o'rnatish va oddiy matnni yaratish. Hujjat uslubi va ta'rifi Manba faylining tuzilishi Hujjatning mantiqiy tuzilishi Bo'linish buyruqlari Tarkiblar to'plami Xatboshini formatlash. Izohlar va eslatmalar yaratish Tasmani joylashtirish parametrlarini o'zgartirish va o'rnatishni o'rgatadi. Ushbu maruzalar matnida TEX va LATEX yordamida xujjat yaratish bosqichlari keltirib o'tilgan.

Maruzalar matni tasma tartibini o'zgartirish. Jadval yaratish Siljuvchi obyektlar. Qatlamlarning nomlarini o'zgartirish Shriftlarning xususiyatlari Shrift hajmini boshqarish. Ortogonal shriftni boshqarish buyruqlari Matematik formulalarning versiyalari. Matematik shriftlar uchun buyruqlar. Matematik belgilar. Murakkab belgilar va operatorlar. Matematik cheklovlar. Matritsa muhitlari Ko'p qatorli formulalarni tekislash. Formula raqamlash. Dekorativ ramkalar. Grafik rasmlar. Tashqi grafik fayllardan foydalanish. Bibliografiya yaratish. Hisoblagichlarni yaratish va boshqarishga mo'ljallangan

Hozirgi kunda Oliy ta'lim tizimidagi turli darsliklar ma'lumotlarni turli xil formatda saqlash usullarini usullarini tavsiflaydi. Ushbu maruzalar TEX va LATEX yordamida xujjat yaratishning o'ziga xos ehtiyojlariga javob beradi.

Talaba LaTeX dasturini o'rnatish va oddiy matnni yaratishdan boshlab, LaTeX ning grafik imkoniyatlari, Matematik formulalar bilan ishlash, Murakkab formulalar bilan ishlash. Grafik rasmlar. Tashqi grafik fayllardan foydalanish. Bibliografiya yaratish. Hisoblagichlarni yaratish va boshqarishga mo'ljallangan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

I BOB.

"LATEXGA KIRISH" FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA USULLARI

1.1.- "LATEX ga kirish" fanining mazmuni, predmeti va usullari.

Reja:

1. Tex va Latex matn muharriri haqida ma'lumot.
2. Tex va Latex matn muharririda ishlash.
3. Latex hujjatining umumiy tarkibi
4. Latex buyruqlari

Kalit so'zlar: Tex, Latex, priambula, article, repolt, book, letter

Tex va Latex matn muharriri haqida ma'lumot.

Keyingi paytda turli korxonalarda kichik nashriyotlar paydo bo'la boshladi. Kichik nashriyot deganda, shaxsiy kompyuter bazasida, turli tez chop qiluvchi va boshqa qo'shimcha qurilmalar orqali bosma mahsulotlari (kitob, oynoma, jurnal, broshuralar, prospektlar va hokazo) chiqarish tushuniladi. Bunda bo'lajak bosma mahsulotlari kompyuterda tayyorlanadi, ya'ni kompyuter varaqlash, asl maketlash ishlari ham kompyuterda bajariladi.

Rizograf esa asl maket shaklida kompyuterda tayyorlangan, chop qilish uchun ishlatiladi va u minutiga o'rtacha 130 sahifani chop qilishi mumkin. Rizograflarning ham turli xillari mavjudligi va turli chop qilish tezligiga egal va asosan rangli tasvirda bo'ladi.

Rizograflardan tashqari, kichik nashriyotda lazerli printer ham bo'lishi lozim. Undan mashinka sifatida foydalanish mumkin emas. U faqat kompyuterda tayyorlangan asl maketni bir nusxada lazerli printerda chop qilish (sifati yaxshi bo'lganligi sababli) va so'ngra uni rotariatda, rizograflarda, katta bosma qurilmalarida chiqarish uchun ishlatiladi.

Bundan tashqari, kichik nashriyotda muqovalovchi, qog'ozlarni kesuvchi, broshyuralovchi va boshqa qurilmalar bo'lsa, u to'la qonli nashriyot bo'ladi.

Kichik nashriyotda kam nusxada (200-300) mahsulot chiqarish qimmatga tushadi. Shuning uchun nusxalar soni 2000 dan ko'proq bo'lgani yaxshi. Aks holda, bo'yoq masalasi, qimmatbaho pilyonkalarni

har safar sotib olish muammosi tug'iladi. Bundan tashqari, rizograf va lazer printerlarda sifatli qog'oz ishlatilishi lozim.

Asl maketlarni tayyorlashda hozirgi zamon dasturlash vositalari Quark Xpress, PostScript, PageMaker nashriyot tizimlaridan foydalaniladi. Turli formulali matnlarni (matematika, fizika, ximiya) tayyorlashda Tex va uning keyingi lahjalari Latex tahrirlovchi dasturlardan foydalanish dunyo ilmiy amaliyotida keng qo'llaniladi. Bunday tahrirlovchilar kompyuter xotirasida ko'p joy olmaydi. Quark Xpress, PageMaker tizimlari katta hajmdagi xotiraga ega bo'lgan kompyuterda ishlashi mumkin bo'lsa, Latex tizimi hatto 286 protsessorida ham bemalol ishlatiladi. Bu esa uning juda katta afzalligidir.

Shu bilan birga Latex konferensiyalar tezislari, chop etish, hatto ko'p hajmli maqola va kitoblarni elektron pochta orqali jo'natish oson.

Word matn muharririda tayyorlangan ma'lumotlar kompyuter xotirasida joy egallaganligi tufayli unda elektron pochta orqali xatlar jo'natish maqsadlarida foydalanish Latex ga nisbatan uncha tejamli emas.

Tex va Latex matn muharririda ishlash

Tex–ilmiy-texnikaviy matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan tahrirlovchi dastur. Amaliy matematika bo'yicha yirik mutaxassis mashhur D.E.Knut tomonidan Stanford Universitetida ishlab chiqilgan. Tex da tayyorlangan hujjatlarning sifati yaxshiligi, keng imkoniyatligi, turli sohalarga oid formulalar, shu jumladan matematik formulalarni yozish uchun qulayligi, fayllarining xotiradan kam joy egallashi xususiyatlari bilan muhandis, ilmiy-texnik xodimlar ayniqsa ilm ahli tomonidan keng qo'llanila boshladi. Keyinchalik Lesli Lamport Latex deb ataluvchi, Tex ning imkoniyatlari kengaytirilgan tizimini ishlab chiqdi. Hozirgi kunda Latex-1, Latex-2, Latex-2E, AMS (Amerika matematigi jamiyati) Latex kabi lahjalari foydalanuvchilarga keng tarqalgan. Latex da tayyorlangan matnlarni kompyuter tarmoqlari (elektron pochta va h.k.) orqali o'zlash ham har tamonlama qulay.

Shuning uchun ham, hozirgi kunda o'tkazilayotgan xalqaro ilmiy anjumanlar, xalqaro ilmiy jurnallar aynan Latex tizimida tayyorlangan matnlarni qabul qilmoqda. Latex ning Tex dan farq qiluvchi jihati, hujjat turini ko'rsatish mumkinligidir.

Latex hujjat turlari asosan quyidagilar:

Maqola (article)- kichik hajmdagi hujjatlar yoki maqola tayyorlash

uchun mo'ljallangan. Bunda matn boblarga ajratilmaydi va alohida titul varag'iga ega emas.

Ma'ro'za (repol)- katta hajmdagi texnik hujjatlarni tayyorlashda ishlatiladi. Oldingi turdan farqi - boblarga ajratish va alohida titul varag'iga ega.

Kitob (book)- kitob matnlarini tayyorlash uchun mo'ljallangan. Bunda matn varaqning har ikkala tomoniga ham chop etiladi.

Xat (letter)- turli xildagi (adres, sana va h.k.) xatlar tayyorlash mumkin.

Latex hujjatining umumiy tarkibi

Latex da doimo yozilishi shart bo'lgan bir nechta buyruq mavjud. Latex hujjati asosan ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Bosh qismi (priambula).

a) Bu qismda dastlab `|documentstyle [x] {hujjat turi}` buyrug'i yoziladi.

Bunda `[X]` - belgilar o'lchovini bildiradi.

Agar `[X]` yozilmasa,

`Xq10pt` o'lchovli belgilar;

`Xq11pt` bo'lsa, `10pt` o'lchovdan 10 foiz katta belgilar;

`Xq12pt` bo'lsa, `10pt` o'lchovdan 20 foiz katta belgilar ishlatiladi.

Misol: `|documentstyle [12pt] {article}`

b) hujjat varag'ining o'lchovlarini berish:

`|textwidth{170mm}` - eniga 170 mm;

`|textheight{240 mm}` - bo'yiga 240 mm li varaq hosil qilinadi.

v) Foydalanuvchi xohishiga qarab yangi buyruqlar kiritilishi mumkin: `|newcommand{yangi buyruq} {standart buyruq}`.

Misol: `|newcommand{|be} {|begin{equation}}`.

`|newcommand{Ve} {Varepsilon}`.

2. Asosiy qism. U quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

`|begin{document}`

`|end{document}`

Bunda `|end{document}` buyrug'idan keyin kiritilgan matn, Latex tizimi ishchi matni hisoblanmaydi.

Demak, Latex hujjatining umumiy tarkibi:

`|documentstyle [A4,11pt] {article}`

`|textwidth{17sm}`

`|textheight{24cm}`

.....
`|begin{document}`

`|end{document}`

ko‘rinishda bo‘ladi.

Latex buyruqlari

Latex buyruqlari / belgi bilan boshlanadi. Buyruqlar ikki xil bo‘ladi: buyruq so‘zlar va buyruq belgilar.

Buyruq so‘zlar / belgi bilan boshlanib, harflardan iborat bo‘ladi. Masalan: /Latex, /quad, |frac, ...

Latex da buyruqlarning katta yoki kichik harflar bilan yozilishi farqlanadi:

`|gamma` buyruq γ harfini;

/Gamma esa G ni bildiradi.

Buyruq belgilar / va bitta belgi bilan ifodalanadi.

Misol: `|\$, |;` va h.k.

oddiy matni buyruqsiz kiritish mumkin. Oddiy matn kiritayotganda quyidagi qoidalarga e‘tibor berish lozim:

har bir so‘z orasi bitta bo‘shliq bilan ajratiladi. Agar 2 ta va undan ortiq bo‘shliq tashlansa, 1 ta bo‘shliq hisoblanadi.

Bo‘sh satr tashlansa, abzas tugaganligini bildiradi.

«|» yordamida yangi satr boshiga o‘tiladi.

% dan keyin matn maydoniga izoh kiritish mumkin.

Qo‘sh tirnoq va apostrof belgilari:

, , Apostrof

‘matn’ ‘matn’ bittalik qo‘sh tirnoq

“matn” “matn” ikkitalik qo‘sh tirnoq

[[matn]] «matn» kirillcha qo‘sh tirnoq

"matn" "matn" mashina yozuvidagi qo‘sh tirnoq

Maxsus belgilar

Latex da maxsus vazifaga ega bo‘lgan 10 ta belgi mavjud:

Ularni oddiy belgilar kabi kiritib bo‘lmaydi. Ularni matnda ishlatish uchun maxsus buyruqlardan foydalaniladi.

№	Belgi	Latexdagi vazifasi	Matnda kiritilishi
1		Buyruq belgisi	\backslash
2	{	Guruhlashning boshi	{
3	}	Guruhlashning oxiri	}
4	%	Izoh	%
5	&	jadval hosil qilish belgisi	&
6		Bo'linmaydigan bo'shliq	
7	\$	{matematik formulaning boshi va oxiri}	$\$$
8	^	yuqori ko'rsatkich	\wedge
9	_	quyi ko'rsatkich	$_$
10	#	Makrosga quyish belgisi	$\#$

Bo'sh joy (bo'shliq) buyruqlari

Buyruq	Joy kengligi	Nomlanishi
		Oddiy (so'z o'rtasidagi) bo'sh joy
		so'z orasidagi bo'sh joy
		Bo'linmaydigan bo'sh joy
!		juda kichik bo'sh joy
,		kichik bo'sh joy
>		o'rtacha bo'sh joy
;		katta bo'sh joy
enskip		yarim matematik bo'sh joy
quad		Matematik bo'sh joy
qqad		ikki karra matematik bo'sh joy

Shrift turini tanlash

Latex da quyidagi 8 xildagi shriftni ishlatishi mumkin:

Buyruq	Turi	Nomlanishi
rm	Roman	To'g'ri («Roman»)
em	Emphatic	Ajratilgan
bf	Bold	Qalin
it	Italic	Kursiv
sl	Slanted	Og'ma
sf	Sans.Serif	Silliq
sc	Small Caps	Katta bosma shrift
tt	Typewriter	Teletayp shrifti

Shrift turi ko'rsatilmagan holda, |rm- avtomatik tarzda tanlanadi. |em shrift |it ko'rsiv shriftiga ekvivalent bo'lib, matn bo'lagini «ajratib» yozishda ishlatiladi.

Shrift o'lchovini tanlash

Buyruq	o'lchov	Nomlanishi
tiny	tiny Size	Juda kichik
scriptsize	script Size	Ko'rsatkichli o'lchovi
footnotesize	footnote Size	Ko'chirma
small	small Size	Kichik
normalsize	normal Size	O'rtacha
large	large Size	Katta 1
Large	Large size	Katta 2
LARGE	LARGE Size	Katta 3
huge	huge Size	Gigant 1
Huge	Huge Size	Gigant 2

Shrift o‘lchovi ko‘rsatilmagan holda, /normalsize normal o‘lchovli shrift avtomatik tarzda tanlanadi.

Matnni chap, o‘ng va o‘rtaga joylashtirish buyruqlari

Ko‘pchilik hollarda matnni chap, o‘ng va o‘rtaga joylashtirish kerak bo‘ladi. Shu hollarda:

```
/begin{flushleft}
```

Bu matn chapdan yozilsin.

```
/end{flushleft}
```

```
/begin{flushright}
```

Bu matn o‘ngdan yozilsin.

```
/end{flushright}
```

```
|begin{center}
```

Bu matn o‘rtadan yozilsin.

```
|end{center}
```

kabi buyruqlardan foydalaniladi.

Raqamlash buyruqlari

Buyruqli qavslar yordamida itemize va enumerate raqamlovchi kalit so‘zlaridan foydalanish mumkin. |item buyrug‘i esa, har bir raqamlanishi kerak bo‘lgan satr boshiga yoziladi.

Misol:

Natija.

Natural son

Butun son

Ratsional son

Natija

Sherzod

Nodira

Alisher

```
|begin{itemize}
```

```
|item Natural son.
```

```
|item Butun son.
```

```
|item Ratsional son.
```

```
|end{itemize}
```

```
|begin{enumerate}
```

```
|item Sherzod
```

```
|item Nodira
```

```
|item Alisher
```

|end{enumerate}

Qism, bob va bo'limlarga ajratish buyruqlari

Texnik hujjatlarni chop etishda, ularning bob va bo'limlarini raqamlash kerak bo'ladi.

Bu ishni avtomatik tarzda bajarish uchun Latex ning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

Buyruq	ma'nosi	raqamlanishi
part	qism	raqamlanmaydi
chapter	bob	-----
Section	bo'lim	1.2.3,...
Subsection	Qism bo'lim	1.1,1.2,1.3,...
Subsubsection	Ikki karrali qism bo'lim	1.1.1,1.1.2,1.1.3,...

Titul varag'ini tayyorlash

|title {maqola nomi}

|autor {birinchi muallif |and ikkinchi muallif...}

|date {today} % kompyuterdagi joriy sana.

.....

|maketitle % titul varag''ini tuzadi.

Misol:

|title {giperbolik tenglama}

|autor {M.Aripov |and B.Bobanazarov}

|sootnote {ITD kafedrasi aspiranti}

|date {today}

Nazorat savollari

1. Tex va Latex matn muharriri qanday farqlanadi?
2. Tex va Latex matn muharririda ishlash. Deganda nimani tushunasiz?
3. Latex hujjatining umumiy tarkibi nimalardan tashkil topgan
4. Matnni chap, o'ng va o'rtaga joylashtirish buyruqlari deganda nimani tushunasiz?

1.2. Hujjat strukturasi

Reja:

1. Hujjat sinflari
2. Hujjat xususiyatlari
3. Hujjatda ishlatiladigan maxsus belgilar

Kalit so'zlar: article, report, report, slides, fleqn, leqno, titlepage, notitlepage, twocolumn, twoside, onese

Hujjat sinflari

LATEXda birinchi bo'lib hujjat parametrini bilish muhim. Bu ishni `\documentclass` buyrug'i bajaradi. Uning ko'rinishi quyidagicha `\documentclass[xususiyatlar]{sinf}[sana]` Bu yerda `sinf` yaratilayotgan hujjat tipini aniqlaydi.

Sinflar

Sinflar `cls` kengaytma bilan saqlanadi va aniqlanadi. Ya'ni `sinf.cls` ko'rinishda. Quyidagi asosiy sinflar mavjud.

article- fanga doir jurnallar, namoyishlar, qisqa hisobotlar, dasturiy hujjatlarda, taklifnomalar uchun qo'llaniladi.

report-juda katta hisobotlar, ko'plab bo'limga ega bo'lgan kitoblarda, dissertatsiyalar uchun qo'llaniladi.

proc-Dokladlar uchun

letter-Hujjat va hujjat muallifi haqida ma'lumot kiritishda foydalaniladi.

Ko'rinishi:

```
\documentclass{letter}
```

```
\begin{document}
```

```
yozuvlar
```

```
\end{document}
```

book-odatiy kitoblar uchun.

slides-slyd uchun. Shuningdek katta harflarda ortiqcha belgilersiz ishlatiladi.

Xususiyatlar

Xususiyatlar qismini kiritish majburiy emas. Xususiyatlar kiitilmagan taqdirda Latex aniqlangan sinfga qarab Sinf uchun standart xususiyatlarni

avtomatik aniqlaydi. Xususiyatlar qismida bir necha xususiyat kiritish ham mumkin. Bunday vaziyatda xususiyatlar vergul (,) bilan ajratiladi. Bir necha xususiyatlarni keltirib o'tamiz.

10pt, 11pt, 12pt-Hujjat shriftini o'rnatadi. Agar birortasi ham ko'rsatilmagan bo'lsa avtomatik ravishda 10pt ni o'rnatadi.

a4paper, letterpaper ...-Varaq(sahifa) o'lchamini aniqlaydi. Ko'rsatilmagan holatda letterpaper ni aniqlaydi. Shuningdek quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

a5paper, b5paper, executivepaper va legalpaper.

fleqn-formulani chapdan tekislaydi

leqno-formulaga chap tomondan raqam qo'yadi.

titlepage, notitlepage-Maqola sarlavhasi boshlanishi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Ko'rsatilmagan holda article sinfida yo'qligini ko'rsatadi. report va book sinflarida esa boshlanishini ko'rsatadi.

twocolumn-hujjatni 2 ta ustunga bo'ladi.

twoside, oneside-bir yoki ikki tomonli chiqarishni aniqlaydi. Aniqlanmagan holda article va report sinflarida bir tomonli, book sinfida esa ikki tomonli chiqaradi.

openright, openany-Asosiy sahifa qaysi sahifadan boshlanishini ko'rsatish. Faqat tanlangan sahifa yoki birinchi sahifa bo'lishi mumkin. Bu xususiyat article sinfida ishlamaydi, report sinfida keyingi sahifadan boshlanadi, book sinfida esa tanlangan sahifadan boshlanadi.

Misollar,

```
1) \documentclass[11pt,twoside,a4paper]{article}
```

LATEX hujjatning bu buyrug'idan hujjat asosiy shrifti 11, bosmaga chiqarish uchun 2 tomonli va qog'oz formati A4 ekanligini bilish mumkin.

2) Qanday qilib ism familiya va hokazolar kiritiladi:

```
\begin{letter}{\Quadratov Mahmud\ Buxoro vil.
```

```
\ Romitan tum }
```

```
...
```

```
\end{letter}
```

Sana

Sanani ham kiritish majburiy emas. Bu yerdagi sana Hujjat chiqarilgan sanani bildiradi. Kiritilmagan taqdirda Aniqlangan sinfga qarab avtomatik tarzda joriy

sana olinadi. Sana ko'rinishi quyidagicha: "YIL/OY/KUN"

Masalan: `\documentclass[a4paper,12pt]{article}`{2012/03/27}

Paketlar

Siz hujjat yozayotgan paytda Latexning turli imkoniyatlaridan foydalanishingiz mumkin. Jumladan grafik, rangli yozuv va hokazolar.

`\documentclass` tugagandan so'ng hujjat ko'rinishida Latex imkoniyatlarini kengaytirish uchun paketlardan foydalanamiz. Bunday hollarda turli xil paketlardan foydalanishingiz mumkin. Paketlar

`\usepackage[xususiyatlar]{paket}`{sana}

buyrug'i orqali aktivlashtiriladi. Bu yerda paket nomi, xususiyatlar esa kalit so'zlar ro'yhati va paketning maxsus xususiyatlarini o'rnatish. Latex paketlari `sty` kengaytmali fayllarda saqlanadi. Latex paketni o'qiyotganda `paket.sty` ko'rinishda o'qiydi. Shu sababli paket nomini to'g'ri yozish (kengaytmasiz) maqsadga muvofiq. `\usepackage` da ham xuddi `\documentclass` ga o'xshab bir vaqtini o'zida

bir necha xususiyat va paketlarni chaqirish mumkin.

Masalan: `\usepackage[dvips]{graphics,color}`

Latexdagi qatorlar bilan bog'liq buyruqlar bilan tanishamiz.

`\\` yoki `\newline` - yangi qatorga o'tish

`\newpage` - yangi sahifadan boshlash

Maxsus belgilar

Latexda turli buyruqlar kiritishda turlicha belgilardan foydalaniladi. Ular orasida bir nechta asosiy belgilar mavjud. Bu belgilar Latex dasturining maxsus belgilari hisoblanadi. Bu belgilar quyidagilar: `$ & % # _ { } ~ ^ \`

Bu belgilar orqali turli xil buyruqlar kiritilganligi sababli, bu belgilarni o'z

sahifangizda to'g'ridan to'g'ri ishlata olmaysiz. Agar o'z hujjatingizda bu

belgilardan foydalanmoqchi bo'lsangiz maxsus “`\`” belgisidan foydalanishingiz

mumkin. Masalan: `$ & % # _ { } \ $ \ & \% \# _ \{ \}`

Bu belgilardan ko'plab matnli qatorlarda, ko'plab buyruqlar yozishda va boshqa matematik formulalar yozishda foydalanish mumkin. Ammo “`\`” belgisini kiritishda “`\\`” belgidan foydalanish mumkin emas. “`\\`” belgi Latexda keyingi qatorga o'tishni bildiradi.

Shuningdek bu belgilarni `\symbol{kod}` buyrug'i yordamida sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalaridagi kodlari orqali ham kiritish mumkin. Masalan `\symbol{"40}` va `\symbol{"20}` larning ikkalasi ham ` belgisini bildiradi. Bunda agar ‘ yoki “ belgilarini yozmasdan faqat kodni o‘zi yozilsa Latex natija sifatida ASCII jadvalidagi kodga mos belgini qaytaradi. Bu usul ham ancha qulay. Chunki aksariyat foydalanuvchilar odatda ASCII kodlaridan foydalanishadi. Agar hozirgi misolimiz uchun bu usulni qo‘llaydigan bo‘lsak u holda `\symbol{32}` ham ` belgini qaytaradi.

1.1.-jadval

LaTeX command	Sample	Description
<code>\`{o}</code>	ò	grave accent
<code>\' {o}</code>	ó	acute accent
<code>\^{o}</code>	ô	circumflex
<code>\" {o}</code>	ö	umlaut, trema or dieresis
<code>\H{o}</code>	Ő	long Hungarian umlaut (double acute)
<code>\~{o}</code>	õ	tilde
<code>\c{c}</code>	ç	cedilla
<code>\k{a}</code>	ą	ogonek
<code>\l{}</code>	ł	barred l (l with stroke)
<code>\={o}</code>	ō	macron accent (a bar over the letter)
<code>\b{o}</code>	ō	bar under the letter
<code>\. {o}</code>	ô	dot over the letter
<code>\d{u}</code>	u̇	dot under the letter
<code>\r{a}</code>	ā	ring over the letter (for å there is also the special command <code>\aa</code>)
<code>\u{o}</code>	ö	breve over the letter
<code>\v{s}</code>	š	caron/háček ("v") over the letter
<code>\t{oo}</code>	oō	"tie" (inverted u) over the two letters
<code>\o{}</code>	ø	slashed o (o with stroke)
<code>\i{}</code>	ı	dotless i (i without tittle)

Maxsus harf va belgilar

Latex redaktori “(qo‘sh tirnoq) belgisini to‘g‘ridan to‘g‘ri kiritishni qo‘llab quvvatlamaydi. Bunday vaziyatlarda ikkita ` belgidan va yopishda esa ikkita ‘ belgidan foydalaniladi.

Masalan: `Ikkita ` belgisini kiritdik, endi esa ikkita ‘ belgisini kiritamiz”.

Tire va defislar

Latex redaktori tirening 4 turini aniqlaydi. 3 tasi turli ko‘rinishdagi tirelar, 4-si esa matematikadagi - (minus) belgisidir. Ular quyidagilar:

Birinchi 3 ta tirelar: - defis, -- qisqa tire, --- uzun tire va \$-\$ minus belgisi.

Masalan: Bugungi mavzu-Latex\\

56--71 betlarda\\

ha---yoki yo`q\\

\$0\$, \$1\$ va \$-1\$

Ko‘p nuqtalar

Ko‘p nuqta qo‘yish 2 xilda bo‘lishi mumkin. Oddiy ... klaviatura yordamida 3 ta nuqta kiritish va xalqaro standart bo‘yicha uch nuqta kiritish. Ikkinchi turdagi kiritish uchun maxsus

\ldots – buyrug‘idan foydalaniladi.


Masalan: oddiy 3 ta nuqta ... ko‘rinishda bo‘ladi.\\

Buxoro, Samarqand, Navoiy, \ldots

Turli belgilar

Latexda hujjat chiroyli chiqish uchun ko‘plab belgilar ishlatiladi. Ularning asosiylariga to‘xtalib o‘tamiz. Agar paragraf belgisini kiritmoqchi bo‘lsak Texning maxsus \S (katta s) buyrug‘idan foydalanamiz. © belgisi uchun esa \copyright buyrug‘idan foydalanamiz. Matematik formulalarni kiritish uchun foydalaniladigan \$ va & belgilarini \ \$ va \& ko‘rinishda kiritish mumkin. Bu kabi Texning maxsus belgilarini kiritishni biz oldingi bo‘limlarda ko‘rib o‘tgan edik. Bundan tashqari matn yozish jarayonida matematik belgilardan ham foydalanish mumkin. Masalan:

Men + Sen = ♡



Shuningdek Latexda belgilarni belgining kodi orqali ham kiritish mumkin. Buning uchun maxsus `\symbol` buyrug'idan foydalaniladi. Bunda bu

buyruq argumentiga belgi kodi yoziladi. Odatiy lotin harflarini ASCII-kodlar

jadvalidagi kodi bilan kiritish mumkin. Masalan:

\TeX da ishlash juda oson

\LaTeX da ishlash juda

`\symbol{111}\symbol{115}\symbol{111}\symbol{110}`

Latexda belgilarni nafaqat o'nlik kodlari orqali balki sakkizlik va o'n oltilik kodlari orqali ham kiritish mumkin. Bunda agar kod sakkizlikda yozilgan bo'lsa kod oldiga ' belgisi, o'n oltilikda yozilgan bo'lsa kod oldiga " belgisi qo'yib

yoziqladi. Masalan `\symbol{122}` , `\symbol{'172}` va `\symbol{"7A}` yozuvlarining uchchalasi ham z harfini bildiradi.

Nazorat savollari

1. Hujjat sinflari deganda nima tushunasiz?
2. Hujjat xususiyalariga nimalr kiradi?
3. Hujjatda ko'p nuqtalar qanday tartibda qo'yiladi?

1.3. HUJJAT STILI.

Reja:

1. Sahifa va matn bilan ishlash
 2. Kiritiladigan fayl strukturasi
 3. Sahifa o'lchamlari
 4. Titul varag'i va mundarija
- Kalit so'zlar:* Tex, slesh belgisi, documentclass

Sahifa va matn bilan ishlash

Latex buyruqlari teskari slesh "`\`" belgisidan boshlanadi va faqat lotin harflaridan iborat bo'ladi. Buyruq oxirida bo'sh joy ,raqam va ixtiyoriy harf bo'lgan belgidan foydalanish mumkin.

Latexda bo'sh joy belgisi buyruqdan keyin qo'yiladi. Lekin bu belgi o'miga boshqa maxsus `{}` belgisini ham qo'yish mumkin. Masalan: Men

ertaga barcha ishchi \TeX niklarimiz va \TeX nika mutaxassislarimiz bilan uchrashmoqchiman. Bugun \today

Misollar:

-Bugun 8-mart $\textsl{Xalqaro-xotin qizlar bayrami}$

Natija: Bugun 8-mart Xalqaro-xotin qizlar bayrami

-yangi satrga o'tish \newline yangi satr

Natija: yangi satrga o'tish

yangi satr

Shuningdek $\{$ belgisini bu belgi oxiriga yozilgan buyruqqa turli xil parametrlar berish uchun ham ishlatish mumkin. Bunda bir yoki bir necha parametr berish mumkin. Parametrlarni faqat $\{$ belgisi bilan emas balki $[]$ belgisi orqali ham joylashtirish mumkin.

Kiritiladigan fayl strukturasi

Fayl strukturasi

$\documentclass\{...\}$

dan boshlanadi. U hujjat qanday tipda yozilishini ko'rsatadi. Bu buyruq dan so'ng hujjat ko'rinishi, paketlarni yuklash va LATEXning qo'shimcha imkoniyatlarini yuklash boshlanadi. Bunday vazifalarni bajarish uchun

$\usepackage\{...\}$

buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruqdan so'ng matn tanasi boshlanadi. Bu buyruq quyidagicha yoziladi.

$\begin\{document\}$

Endi LATEX buyruqlari yordamida matnni kiritamiz va oxirida

$\end\{document\}$

buyrug'i yordamida hujjatni yopamiz. Masalan:

$\documentclass\{article\}$

$\usepackage[russian]\{babel\}$

$\begin\{document\}$

Latexdagi oddiy hujjat.

$\end\{document\}$

Sahifa o'lchamlari

Latexda sahifa o'lchamlarini aniqlash uchun maxsus buyruqlardan foydalaniladi. Bunda sahifaning turli qismi uchun turli buyruqlar mavjud. Odatda sinf e'lon qilinganda sinfga mos sahifa o'lchamlari

avtomatik aniqlanadi. Sahifada foydalaniladigan asosiy buyruqlardan biri \marginpar buyrug'i bilan tanishamiz. Bu buyruqdan asosan sahifaning o'ng qismini belgilashda foydalaniladi. Masalan:

\marginpar[chegara]{chap chegara shu yer}

Shuningdek \reversemarginpar va \normalmarginpar buyruqlaridan ham foydalanish mumkin. Sahifaga tegishli buyruqlardan yana biri butun sahifa bo'yicha matn shriftini berish buyrug'idir. Bunda \normalfont yoki \textnormal(matn) buyrug'idan foydalanishingiz mumkin.

Titul varag'i va mundarija

Hujjat haqida ma'lumotlar ya'ni hujjat muallifi, yaratilgan vaqti hujjat nomi va boshqa ma'lumotlarni standart kiritish buyrug'i bu \maketitle buyrug'idir. \title{nom} buyrug'i yordamida hujjat nomi kiritiladi. \author(muallif) buyrug'i yordamida esa hujjat mualliflarini kiritish mumkin. \date{sana} buyrug'i yordamida esa hujjat yaratilgan vaqtini kiritish mumkin. Bu buyruqlar yozib bo'lingandan so'ng izoh uchun \thanks{izoh} buyrug'idan foydalanish mumkin. Izohlar haqida biz keyingi mavzularda batafsil to'xtalib o'tamiz. \author buyrug'ida mualliflar soni ko'p bo'lgan hollarda ularni ajratish uchun \and buyrug'idan foydalanish mumkin. Shuningdek sinflardagi standart sahifa parametrlari sizni qoniqtirmasa \begin{titlepage} ... \end{titlepage} tanasi yordamida sahifa parametrlarini o'rnatish mumkin. Bunda sahifani raqamlash

1 dan boshlanadi.

Mundarija yozish qoidasi

Masalan:

1. Kirish	3
2. Masalaning. lishi.....	4
3. Asosiy.....	10
4. Xulosa.....	18
5. Adabiyotlar.....	18

1. Kirish \dotfill 3\\

2.Masalaning qo'yilishi \dotfill 4\\

3.Asosiy natija \dotfill 10\\

4.Xulosa \dotfill 18\\

5.Adabiyotlar \dotfill 18\\

Bunda \$ belgi ishlatilmaydi,\dotfill komandasi yetarlicha nuqtalar qo'yadi.Betlar nomeri o'ng chetdan avtomatik ravishda qo'yiladi. Agar mundarijada §-paragraf belgisi ishlatilsa , \S komanda ishlatiladi. \$ belgi qo'yilmaydi.

Sahifani raqamlash

Odatda sahifani raqamlashda odatiy raqamlardan foydalaniladi. Lekin agar bunday raqamlash sizni qoniqtirmasa raqamlash ko'rinishini o'zgartirishingiz mumkin. Bu ishni \pagenumbering{format} buyrug'i orqali bajarish mumkin. Bu buyruq orqali tanlangan raqamlash formati butun hujjat sahifalariga ta'sir qiladi.

```
1 \documentclass{article}
2 \usepackage[utf8]{inputenc}
3
4 \pagenumbering{roman}
5
6 \begin{document}
7
8
9 \section{First section}
10 ...
11
12 \end{document}
```

Natija:

1 First section

...


1.1.-rasm. kod qismini ishlatishda olingan natija

Quyidagi formatlar mavjud:

arabic roman Roman alph Alph

Sahifa ko'rinishi

Endi sahifa ko'rinishiga doir buyruqlar bilan tanishamiz.



1.2.-rasm.Sahifa parametrlari

Nazorat savollari

1. Sahifa va matn bilan ishlash qay tartibda amalga oshiriladi?
2. Kiritiladigan fayl strukturasi qaysi kalit so'zdan boshlanadi?

3. Sahifa o'Ichamlari haqida ma'lumot bering
4. Titul varag'i va mundarija tuzish qay tartibda amalga oshiriladi?

1.4.- HUUJATLARNI FORMATLASH

Reja:

1. Ostki chiziq va ramkalar. Bo'sh joylar hosil qilish
2. Harf usti va harf osti belgilari
3. Shriflarni almashtirish
4. Izoh(havola)lar

Kalit so'zlar: Small, normalsize, huge, NFSS, AMS-Latex, footnote, righthyphenmin, sloppy

Ostki chiziq va ramkalar

Ajratilgan qism(masalan qandaydir yozuv) ostiga chizish uchun `\underline` buyrug'idan foydalaniladi.

Bu yozuv ostiga chizilgan. Bu yozuv `\underline{ostiga chizilgan}`.

Matnning belgilangan qismini ramkaga olish uchun `\fbox` buyrug'idan foydalaniladi.

Bu so'z ramkaga olingan. Bu so'z `\fbox{ramkaga olingan.}`

Turli oraliqlar(bo'sh joylar) hosil qilish

Latex dasturida bo'sh joylar bo'sh joy("probel") klavishasini bosish orqali hosil qilinadi. Bunda hech qanday ortiqcha buyruq shart bo'lmaydi. Xuddi matn protsessorlari kabi matn yoziladi. Bir necha bo'sh joylar uchun bu belgi bir necha marta ishlatiladi. Latexda bo'sh satr tabulyatsiyani bildiradi. Ikkita bo'sh satr abzats

tugashini aniqlaydi. Bir necha bo'sh satr esa xuddi bitta bo'sh satr kabi ishlatiladi.

L^AT_EXda oddiy yozuv yozish juda qulay!

\LaTeX da oddiy yozuv yozish juda qulay!

Tex yozuvda bo'sh joylar kiritishda quyidagi qonuniyatlardan foydalanadi.

-Quyidagilardan so'ng bo'sh joy yozish mumkin:

-Nuqta,so'roq va undov belgilari

-Ikki nuqta

-Nuqta vergul

-Vergul

-Agar biror so'zdan keyin biror tinish belgisi ishlatilsa, u holda bu tinish belgisidan so'ng qo'yilgan bo'sh joylar bitta bo'sh joy sifatida qabul qilinadi.

-Agar so'zda ishlatilgan tinish belgilaridan keyin bo'sh joy yozilsa va undan so'ng yopiluvchi qavslar(aylana yoki kvadrat) yozilsa u holda tinish belgisidan keyin yozilgan bo'sh joy hisobga olinadi.

Tex yuqoridagi qoidalar bo'yicha bo'sh joylarni aniqlaydi. Shuningdek Texdaboshqa maxsus buyruq va qoidalar yordamida kerakli darajadagi bo'sh joylarni yozish mumkin.

-Agar gap tugamasdan turib so'zdan keyin nuqta qo'yishga to'g'ri kelsa, u holda \ (teskari slesh va bo'sh joy) yozish orqali odatiy bo'sh joyni yozish mumkin.

-Agar gapdan keyin yozilgan nuqta yoki boshqa belgilar gap tugaganini bildirsa u holda maxsus \@ dan foydalanish mumkin.

Bu yerda bo'sh joy yozish uchun TeXning

bir qancha qoidalaridan foydalanilgan.

Bu yerda bo'sh joy yozish\ uchun

\TeX ning

\\ bir qancha qoidalaridan~foydalanilgan\@.

Bu yerda oxirgi so'zdan oldin ishlatilgan ~ belgisi shunchaki ikki so'zni ajratish uchun xizmat qiladi.

Agar barcha so'zlar orasiga bir xil bo'sh joy qo'ymoqchi bo'lsangiz \frenchspacing buyrug'idan foydalanishingiz mumkin. Bu buyruqdan so'ng so'zlar

orasiga \@ va \ larni yozish shart emas.

Agar oldingi bo'sh joy yozish rejimiga qaytmoqchi bo'lsak(\frenchspacing siz) quyidagi \nonfrenchspacing buyrug'idan foydalanishimiz mumkin. Bu yozuvdan keyin esa \@ va \ lardan foydalanish mumkin. Texda bundan tashqari yana bo'sh joylarni o'zimizga moslash imkoniyatlarini beruvchu buyruqlardan foydalanish mumkin.

Oraliqlarni qo'lda kiritish

Biz yuqorida bo'sh joy kiritish uchun foydalangan \ (teskari slesh va bo'sh joy) va ~ belgilari aniq ko'rinisdagi bosh joylar hisoblanadi. Agar so'zlar orasidagi masofani uzaytirmoqchi bo'lsak bu belgilardan bir necha marta foydalanishimizga to'g'ri keladi. Masalan bu belgilardan uch marta foydalanish uchun ~~~ yoki \ \ \ kabi bo'ladi. Bunday vaziyatlarda bu usul noqulay hisoblanadi.

Bu vaziyatlarda foydalanish uchun Texning bir qator buyruqlari mavjud. Masalan odatiy bo'sh joy uchun (1 em) \quad va odatiy ikkita bo'sh joy uchun \quad buyruqlaridan foydalanish mumkin. \enskip buyrug'i esa ikkita standart raqam uzunligicha bo'sh joy yozish uchun ishlatiladi. Shuningdek \, dan ham foydalanish mumkin.

Agar aniq o'lchamdagi bo'sh joy yozmoqchi bo'lsak \hspace{uzunlik} buyrug'idan foydalanishimiz mumkin. Uzunlik quyidagicha ko'rsatiladi:

\hspace{1.5cm}

Bu yerda 1cm oraliq.

Bu yerda \quad 1em oraliq. \

Bu yerda 1em oraliq.

Bu yerda \quad {} 1em oraliq. \

Bu yerda uzun bo'sh joy nimaga kerak.

Bu yerda \quad {} uzun bo'sh joy nimaga kerak. \

Harf usti va harf osti belgilari

Texda turli tillar alfavitlaridan tashqari, lotin harflarining usti va ostiga turli xil belgilarni yozib hosil qilingan harflarni ham kiritish mumkin. Bunday belgilar yevropa tillar oilasiga kiruvchi tillarda ko'p foydalaniladi. e harfi misolida ko'rib o'tamiz.

Kodi	Natija	Kodi	Natija
\'e	è	\'e	é
\^e	ê	\^e \	ë
\=e	ë	\.e	è
\u{e}	ě	\v{e}	ě
\H{e}	Ě	\"e \"	ë
\c{e}	ç	\d{e}	ç
\b{e}	ç	\t oo	oo

Yana bir jadval maxsus belgilarning boshqa bir ko'rinishi so'roq va undov belgilari ishtirokidagi harflardir. Bu belgilar odatda ispan tilida ishlatiladi

Kodi	Natija	Kodi	Natija
------	--------	------	--------

<code>\oe</code>	œ	<code>\OE</code>	Œ
<code>\ao</code>	æ	<code>\AE</code>	Æ
<code>\aa</code>	å	<code>\AA</code>	Å
<code>\o</code>	ø	<code>\O</code>	Ø
<code>\l</code>	ł	<code>\L</code>	Ł
<code>\i</code>	ı	<code>\j</code>	ı
<code>\aa</code>	ß		
<code>\'</code>	ı	<code>\'</code>	ı

Bu yerda `\i` va `\j` buyruqlari oddiy `i` va `j` ni kiritish uchun xizmat qiladi. Oddiygina qilib `\=i` yozish mumkin emas, chunki bu holda harf usti belgili boʻlib qoladi.

Natija esa	<code>.Natija esa\\</code>
quyida ^g icha boʻladi.	<code>quyida\^gicha \c{b}oʻladi.\\</code>
$\ddot{a} + \ddot{b} = \dot{c}$; Qanday!	<code>\"a + \"b = \c{c}</code> <code>! `Qanday!</code>

Agar yuqoridagiga oʻxshash belgilarni kiritmoqchi boʻlsangiz va bu belgi faqat bitta belgi ustida amalga oshirilsa u holda kerakli buyruqdan soʻng figurali qavs ichiga harfni kiritish shart emas.

faʼkultet yoki faʼkultet — bir xil. `fa\c{k}ultet yoki`

Shriftlarni almashtirish

Biz yozuv ,formula va hokazolarni yozayotganda Latexning standart shriftlaridan foydalanamiz. Latex bizga taqdim etgan shrift ajoyib koʻrinishga ega va xalqaro standartdagi shrift boʻlsada ayrim hollarda bu shriftdan chekinib, yangi

shrift(yangi koʻrinish)ga oʻtishga toʻgʻri keladi. Masalan yozuv qismlarini ,izohlarni va hokazolarni ajratib koʻrsatish uchun. Bunday vaziyatlarda Latexning turli buyruqlaridan foydalanish mumkin. Masalan `\em` buyrugʻi qiyaroq yozuv yozishda ishlatiladi.

Bu matn belgilangan:	<code>Bu matn {\em belgilangan;\\</code>
endi ichki belgilashni amalga oshiramiz	<code>endi ichki belgilashni amalga</code>
belgilandi keyingisida;	<code>oshiramiz\\</code>
endi odatiy koʻrinishga oʻtamiz.	<code>{\em belgilandiV} keyingisida;\\</code>
Agar belgilangan qism tugasa	<code>endiV} odatiy koʻrinishga oʻtamiz.\\</code>
vergul, qoʻyish kerak.	<code>Agar belgilangan qism tugasa\\</code> <code>{\em vergul,} qoʻyish kerak.</code>

Bu yerda ishlatilgan V buyrug'i belgilangan qismdan keyin yoziladi va \em

buyrug'ini bekor qilib odatiy shriftga qaytadi.

Endi shrift ko'rinishi va o'lchamlari haqida to'xtalib o'tamiz. Quyidagi jadvalda Latexda shrift ko'rinishlari keltirilgan.

1.2.-jadval

Buyruq	Shrift nomi
\bf	Qalin yozuv(boldface)
\it	Kursiv(italic)
\sl	Qiyaroq(slanted)
\sf	Keskir shrift(sans serif)
\sc	Kapitel(SMALL CAPS)
\tt	Mashinka yozuviga o'xshash(typewriter)
\rm	Odatiy yozuv(roman)

Yuqorida ko'rib o'tilgan buyruqlardan \tt buyrug'i qolgan buyruqlardan farqli ravishda kamdan kam foydalaniladi. Bunday shriftdan asosan rasm bilan ishlaydigan dasturlar(rasm muharrirlari)da foydalaniladi.

Keyingi jadvalimiz shriftlar o'lchami:

1.3.-jadval

Buyruq	Shrift nomi
\tiny	Juda kichik
\scriptsize	Juda kichik(indeks kabi)
\footnotesize	Kichik (izoh kabi)
\small	Kichik
\normalsize	O'rtacha
\large	Katta
\Large	Kattaroq
\LARGE	Yanada kattaroq
\huge	Juda katta
\Huge	Nihoyatda katta

Shrift turi va o'lchamini birdaniga o'rnatish mumkin. Biz juda ko'p foydalanadigan shrift ("roman")ni `\bf\large` yoki `\large\bf` kabi o'rnatish mumkin. Bunda ikkala usulda ham bir xil natija

Odatiy yozuv qaytariladi. Masalan:

bunisi ham `\bf\large` Odatiy yozuv `\`

`\large\bf` bunisi ham

Latexning yangi variantlarida "Shrift yozishning yangi sxemasi" (NFSS) dan foydalanilgan va shu orqali ishlaydigan bir necha yangi buyruq kiritilgan. Shu o'rinda NFSS haqida ma'lumot berib o'tsak.

Latex dasturi rivojlanishining uchinchi variantidan boshlab AMS-Latexdan keng foydalanila boshlandi. Latex ilovalari ro'yhatiga kiritilgan bu ilova Latexdagi

shriftlar ustida turli amallar bajarish uchun qo'laniladi.

Yangi turdagi sxema (inglizchada New Font Selection Scheme, qisqacha NFSS) Latexning shrift uchun ishlatiladigan avvalgi buyruqlarini rad etmagan holda, ular orqali va ularga qo'shimcha tarzda ishlaydi. Bu sxema shriftlar ustida quyidagi to'rt turdagi parametrlarni o'zgartirish va shriftlarni o'rnatishni amalga oshiradi. Parametrlar quyidagilar: oila (family) - masalan roman, sanserif yoki "Mashinka yozuviga o'xshash" bir biriga yaqin (oilga kabi) shriftlarni o'rnatish, qator (series) - masalan "qalin" shriftning qalinligi, o'lchami so'zlar orasidagi masofa kabilarni o'rnatish, forma (shape) - masalan odatiy, kursiv yoki qiya kabilarni o'rnatish va o'lcham (o'lchamni o'rnatish uchun `\baselineskip` buyrug'idan foydalanish mumkin).

Shriftni faqat ichki qismda ishlatish ham

Bu yerda qalin yozuvdan mumkin. Masalan:

foydalanilgan.

Bu yerda `{\bf qalin yozuv}` dan `\`

foydalanilgan. `\`

Ko'p foydalaniladigan shriftlar o'lchamlari bu `\large`, `\small` bo'lib ular 12 bosma o'lchamiga mos keladi.

Izoh (havola)lar

Ko'pchilik Microsoft office word da ishlatiladigan izohlar (сноска) haqida biladi. Biz bu bo'limda mana shunday izohlarni Latexda ko'rib o'tamiz. Izohlar uchun Latexda maxsus `\footnote` buyrug'idan foydalanish mumkin. Izohlar yozish Latexning barcha sinf va paketlarida mavjud bo'lib quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

IZOH\footnote{o'xshash jumla} nomerlash ...

Agar izoh nomeri kiritilmasa avtomatik tarzda nomer qo'yiladi (birdan boshlab). Agar izoh bir necha qatordan iborat bo'lsa yozilishi kerak bo'lgan qatorlar orasiga bir necha bo'sh qator tashlash yetarli. Odatda har bir sahifa uchun alohida izohlar yoki butun hujjat uchun bitta sanagich orqali izohlar yoziladi. Lekin har bir sahifada xohlagan nomerli izoh hosil qilish mumkin. Buning uchun kvadrat qavs ichiga izoh nomeri yoziladi. Masalan¹⁶:

Masalan\footnote[16]{Bu kodni Latexda yozib ko'ring}

Izohlarimiz har doim ham birdan boshlanmaydi. Yuqoridagi misolda birinchi izohimiz o'n olti raqamli izoh bo'ldi. Demak keyingi izohlar ikkidan boshlanishi kerak. Lekin biz avtomatik nomerlashni qo'llasak baribir o'n oltidan keyin yana birdan boshlanadi. Bunday vaziyatlarda \footnotemark buyrug'idan foydalanish mumkin. Masalan:

¹⁶Bu kodni L^AT_EXda yozib ko'ring

²Izohning manosi

bu yerda

Masalan\footnote[16]{Bu kodni
\LaTeX da yozib ko'ring}

izoh\footnotemark

IZOH\footnote{Izohning manosi bu yerda}

\footnotemark ni nafaqat yuqoridagi vaziyatlar uchun, balki tegishli izohlarni o'zgartirish uchun ham ishlatish mumkin. Agar aynan qaysidir nomerdagi izohga matn yozmoqchi bo'lsangiz \footnotetext buyrug'idan foydalanishingiz mumkin.

Aynan\footnotemark[26]

shunisi\footnotetext[26]{bu yerda yozilgan}

Bo'g'inlash

Hujjat yozish jarayonida agar qatordagi oxirgi so'z joriy qatorga sig'may ñolsa keyingi qatorga bo'g'inlab o'tkazish kerak bo'ladi. Bu usul o'quvchiga qulay hisoblanadi. Latexda so'zlarni bo'g'inlash standart tarzda avtomatik emas. Bu turli tillarning bo'g'inlash grammatikasi turli xil bo'lganligi sabablidir. Ammo Latex so'zlarni o'zingiz xohlagandek bo'g'inlash imkonini beradi. Bu ish

\righthyphenmin buyrug'i asosida bajariladi.

\righthyphenmin=2

yozuvi oxirgi ikkita belgiga bo'ginlashga ruxsat borligini bildiradi. Bunday usul uncha qulay bo'lmasligi mumkin. So'zlarni o'zimiz xohlagan

ko‘rinishda kiritish uchun \hyphenation buyrug‘idan foydalanishimiz mumkin. Masalan:

\hyphenation{harf-la-ri-dan}

Bu buyruqda so‘zlarni yozayotganda ular orasida bo‘sh qator bo‘lishi mumkin emas.

\sloppy buyrug‘i va \emergencystretch parametri

Uzun qatorlar bilan ishlayotgan paytda bir qatorga bir necha so‘z yozib qolgan qismini bo‘sh qoldirib, keyingi qatorga o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bunday vaziyatlarda

\sloppy buyrug‘idan foydalanish qulay. Masalan:

Matematikada ko‘p hollarda grek harflaridan foydalanib ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi	{\sloppy Matematikada ko‘p hollarda grek harflaridan foydalanib ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi}
---	---

Bu buyruqda har bir qator uchun yozuvdan so‘ng bo‘sh qator qoldirish kerak. Orasida bo‘sh qator bo‘lmagan so‘zlarni bir qatorda yozadi.

Yuqoridagi misolda qatorlar standart abzats(satr boshi) orqali yozilgan. Abzats uzunligini o‘zgartirish uchun \emergencystretch buyrug‘idan foydalaniladi.

\emergencystretch ko‘rinishda yozilgan buyruq uzunligi nolga teng(standart

abzats). Satr boshi uzunligini aniqlash quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:
\emergencystretch=5pt

Nazorat savollari

1. Hujjatda ostki chiziq va ramkalar qaysi buyruq orqali amalga oshiriladi?
2. Bo‘sh joy hosil qilish qay tartibda amalga oshiriladi?
3. NFSS bu nima?
4. Righthyphenmin buyrug‘ining vazifasi nimadan iborat

II BOB. HUJJATLAR BILAN ISHLASH UCHUN ASOSIY VOSITALAR

2.1.- XOSHIYA MAYDONI BILAN ISHLASH

Reja:

1. Izohlar (havola) lar
2. Qator xususiyatlarini o'zgartirish

Kalit so'zlar: footnote, footnotemark, footnotetext, newline ,
smallskipamount Medskipamount, bigskipamount

Izoh(havola)lar

Ko'pchilik Microsoft office word da ishlatiladigan izohlar(сhocka) haqida biladi. Biz bu bo'limda mana shunday izohlarni Latexda ko'rib o'tamiz. Izohlar uchun Latexda maxsus \footnote buyrug'idan foydalanish mumkin. Izohlar yozish Latexning barcha sinf va paketlarida mavjud bo'lib quyidagi ko'rinishda bo'ladi. IZOH\footnote{o'xshash jumla} nomerlash ... Agar izoh nomeri kiritilmasa avtomatik tarzda nomer qo'yiladi(birdan boshlab). Agar izoh bir necha qatordan iborat bo'lsa yozilishi kerak bo'lgan qatorlar orasiga bir necha bo'sh qator tashlash yetarli. Odatda har bir sahifa uchun alohida izohlar yoki butun hujjat uchun bitta sanagich orqali izohlar yoziladi. Lekin har bir sahifada xohlagan nomerli izoh hosil qilish mumkin. Buning uchun kvadrat qavs ichiga izoh nomeri yoziladi. Masalan¹⁶:

Masalan\footnote

{Bu kodni Latexda yozib ko'ring}

Yuqoridagi misolda birinchi izohimiz o'n olti raqamli izoh bo'ldi. Demak keyingi izohlar ikkidan boshlanishi kerak. Lekin biz avtomatik nomerlashni qo'llasak baribir o'n oltidan keyin yana birdan boshlanadi. Bunday vaziyatlarda \footnotemark buyrug'idan foydalanish mumkin. Masalan:

¹⁶Bu kodni L^AT_EXda yozib ko'ring

²Izohning manosi

bu yerda

Masalan\footnote[16]{Bu kodni
L^AT_EX da yozib ko'ring}
izoh\footnotemark
IZOH\footnote{Izohning
manosi bu yerda}

\footnotemark ni nafaqat yuqoridagi vaziyatlar uchun , balki tegishli izohlarni o'zgartirish uchun ham ishlatish mumkin. Agar aynan qaysidir nomerdagi izohga matn yozmoqchi bo'lsangiz \footnotetext buyrug'idan foydalanishingiz mumkin. Aynan \footnotemark[26] shunisi \footnotetext[26] {bu yerda yozilgan}

Qator xususiyatlarini o'zgartirish

faylnomiga fayl nomi ko'rsatiladi. \mbox{\rm faylnomi} ga fayl nomi ko'rsatiladi.

Bu yerda yozilgan \mbox buyrug'i parametriga (figurali qavs ichida) bir necha parametrlarni (shrift turi, o'lchami va h.k) ham joylashtirish mumkin.

Texning yana bir bo'g'inlar haqidagi buyrug'i \- so'zlarni bo'lish (keyingi qatorga o'tish) buyrug'idir. Masalan:

Xush kelibsiz! \- Ochiq darsimizga.

Texning asosiy va juda ko'p foydalaniladigan yana bir buyrug'i bu \ \ yoki \newline dir. Bu buyruqlar yangi qatorga o'tishni ta'minlaydi. Bu buyruq haqida oldingi bo'limlarda misollar keltirilgan.

So'zlar uzunligi bo'yicha qatorga moslashtirish h (xuddi Microsoft Word kabi)

\linebreak buyrug'i orqali bajariladi. Masalan:

Bu moslashtirilgan	qator dagi	so'zlar	Bu	qator dagi
				so'zlar \linebreak moslashtirilgan.

Shuningdek keyingi qatorga o'tishda nafaqat \ dan balki boshqa yana bir usul, kvadrat qavs ichiga qatorlar orasidagi oraliq o'lchamini kiritishdan ham foydalanish mumkin. Masalan:

Qatorlar orasidagi

masofa katta

Qatorlar orasidagi \[5pt]

masofa katta

Shuningdek \ buyrug'i o'miga bu

buyruqdan deyarli farq qilmaydigan quyidagi vertikal oraliqlar kiritish buyruqlarni ishlatish mumkin.

\smallskipamount Kichik vertikal oraliq

\medskipamount Kattaroq vertikal oraliq

\bigskipamount Katta vertikal oraliq

Nazorat savollari

1. Qator xususiyatlarini o'zgartirish deganda nimani tushunasiz?
2. Footnote buyrug'i qanady vazifani bajaradi?
3. Footnotemark va footnotetext buyrular'i qanady vazifalarni bajaradi?

2.2.- Jadvallar bilan ishlash

Reja:

1. Jadvallarni yaratish uchun asosiy vositalar
2. Jadval muhiti

Kalit so'zlar: tabbing, kill, hspace, tabular

Jadvallarni yaratish uchun asosiy vositalar

Jadval satrlar va ustunlar kesishmasidan tashkil topadi.

Satrlar yoki ustunlar sarlavhalarga ega bo'lishi mumkin. Odatda, har bir ustun (lar) da sarlavha bo'ladi, lekin satrlar ham sarlavha bo'lishi kerak bo'lishi mumkin. Ustun sarlavhalari jadvalning eng yuqori satrida ko'rinadi. Satr sarlavhalari odatda chap tomondagi ustunda ko'rinadi.

tabbing buyrug'i

Agar jadval oddiy tuzilishga ega bo'lsa va har bir ustunning kengligi ma'lum bo'lsa, uni yaratish uchun tabbing muhitidan foydalanamiz mumkin.

Atrofdagi birinchi qator - "\ =" buyrug'i bilan kataklar(yacheykalar) chegaralarini joylashishini ko'rsatamiz va ustunlarning kengligini o'rnatish. "\ kill" buyrug'i jadval chetki chiziqlarini bildiradi.

Keyin jadvalning tarkibi kiritiladi. Katakllarni ajratish uchun "va" buyrug'idan foydalanamiz va jadvalning keyingi qatoriga o'tish - "\\ " buyrug'I orqali amalga oshiriladi.

Masalan, jadval ko'inishini bilish uchun.

T(n)	10	50	60
n	10^{-5} c.	$5 \cdot 10^{-5}$ c.	$6 \cdot 10^{-5}$ c.
n^5	0.1 c.	5.2 ммм.	13.0 ммм.
2^n	0.001 c.	35.7 лет	366 стол.

Quyidagi misolda LATEX kodini ishlatib ko'ramiz:

```

\begin{tabbing}
% Эта строка только определяет ширину колонок.
мммм \= мммммм \= мммммм \= мммммм \kill
% Здесь начинается первая строка содержания таблиц.
\bf T(n) \> {\bf 10} \> {\bf 50} \> {\bf 60} \\ % Конец первой строки
$n$ \> $10^{-5}$ с. \> $5\cdot 10^{-5}$ с. \> $6\cdot 10^{-5}$ с. \\
$н5$ \> 0.1 с. \> 5.2 млн. \> 13.0 млн. \\
$2n$ \> 0.001 с. \> 35.7 лет \> 366 стол.
\end{tabbing}

```

Tabbing buyrug'i bir qator cheklovlar va xususiyatlarga ega:

\hspace {} buyrug'ini ishlatib, kataklar kengligi belgilanadi.

Bitta jadvalni boshqa jadvalning ichiga joylash imkoniyati yo'q.

Yacheykalar orasidagi ajratuvchi chiziqlarni ko'rsatish imkoniyati yo'q.

Faqat matn holatida foydalanish mumkin.

The Tabing muhiti bilan yaratilgan jadvallar, agar kerak bo'lsa, keyingi sahifalar qatoriga chiziqlar bilan chegaralanadi.

Jadval muhiti

```

\begin{center}
\begin{tabular}{ccc}
cell1 & cell2 & cell3 \\
cell1 & cell2 & cell3 \\
cell4 & cell5 & cell6 \\
cell4 & cell5 & cell6 \\
cell7 & cell8 & cell9 \\
\end{tabular}
\end{center}

```

Jadval muhiti yuqorida tavsiflangan muammolarni hal qilishga yordam beradi. U juda ko'p sozlamalarga ega va qo'shimcha imkoniyatlarni ulash orqali uning imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Jadval muhiti yordamida jadval yaratishda avval ustunlar sonini belgilashimiz lozim bo'ladi.

Buning uchun ushbu muhitda kerakli parametr mavjud: "l", "c", "r" va "|" belgilar ketma-ketligi. "L" harflarining umumiy soni, "C" va "r" jadvaldagi ustunlar sonini ko'rsatadi. Bunday holda, "l" belgisi mos keladigan ustundagi tarkibning chetlari yacheykaning chap chetida joylashganligini anglatadi, "r" harfi o'ng tomonga tekislanadi, va "c" harfi ishora qiladi.

Masalan, \ start {tabular} {lrc} to'rt ustunli jadvalni hosil qiladi, birinchi ustun chapga, ikkinchisi o'ngga va ikkitasi, oxirgi ustunlar o'rtada bo'ladi.

Jadvalning tarkibi, tabbing buyrug'ini ishlatishda bo'lgani kabi, chiziqlar bo'yicha ham shakllantiriladi. Chiziqdagi yacheyka tarkibi "&" belgisi bilan ajratilgan va har bir satr "\\" buyrug'i bilan tugatilgan.

Darajalar jadvalini tuzamiz: jadval ustunlari eksponent uchun, va satrlar - daraja uchun asos bo'ladi. Ushbu misol tekislash qanday bo'lishini ko'rsatadi. O'ng tom'onidagi ustunlar tarkibi jadvalning paydo bo'lishiga ta'sir qiladi.

2	3	4	5		
2	4	8	16	32	
3	9	27	81	243	
4	16	64	256	1024	
5	25	125	625	3125	

```

\begin{tabular}{crrrr}
& 2 & 3 & 4 & 5 \\
2 & 4 & 8 & 16 & 32 \\
3 & 9 & 27 & 81 & 243 \\
4 & 16 & 64 & 256 & 1024 \\
5 & 25 & 125 & 625 & 3125 \\
\end{tabular}

```

birinchi qator va birinchi ustunni ajratib, unga gorizontaal va vertikal chiziqlar qo'shsak, jadvalni o'qish osonroq bo'ladi.

Buni qilish qiyin emas. "|" Belgisi ichida talab qilinadigan muhit parametrlari jadvalida jadvalning to'liq balandligiga vertikal chiziq chiziladigan ustunlar orasidagi bo'shliqlar ko'rsatiladi.

Gorizontaal holatni ko'rsatish uchun jadvali muhit bilan yaratilgan jadvaldagi satrlar \ hline buyrug'idan foydalanadi. Agar bizning jadvalimizga kerak bo'lsa, siz bir nechta belgilarni ishlatishingiz mumkin "|" ikki, uch, va hokazo.

```
{|c|c|c|}
```

Bu vertikal chiziq bilan ajratilgan uchta ustun jadvalda ishlatilishini bildiradi. Har bir c ustun tarkibining markazlashtirilishini anglatadi, shuningdek, matnni o'ngga va l-chapga tekislash uchun r dan foydalanishingiz mumkin.

```

\begin{center}
\begin{tabular}{||c c c c||}
\hline
Col1 & Col2 & Col2 & Col3 \\
\hline
\end{tabular}
\end{center}
[0.5ex]
\hline\hline

```

Col1	Col2	Col2	Col3
1	6	87837	787
2	7	78	5415
3	545	778	7507
4	545	18744	7560
5	88	788	6344

```

1 & 6 & 87837 & 787 \\
\hline
2 & 7 & 78 & 5415 \\
\hline
3 & 545 & 778 & 7507 \\
\hline
4 & 545 & 18744 & 7560 \\
\hline
5 & 88 & 788 & 6344 \\ [1ex]
\hline
\end{tabular}
\end{center}

```

Vertikal chiziqlarda bir qator \ hline buyruqlarini ketma-ket ishlatishingiz mumkin.

	2	3	4	5
2	4	8	16	32
3	9	27	81	243
4	16	64	256	1024
5	25	125	625	3125

```

\begin{tabular}{c|rrrr|}
& 2 & 3 & 4 & 5 \\
\hline
\hline
2 & 4 & 8 & 16 & 32 \\
3 & 9 & 27 & 81 & 243 \\
4 & 16 & 64 & 256 & 1024 \\
5 & 25 & 125 & 625 & 3125 \\
\hline
\end{tabular}

```

1.1...-rasm. hline buyruqlarini ketma-ket ishlatish

Nazorat savollari

1. Jadvallarni yaratish uchun asosiy vositalar deganda nimani tushunasiz?
2. Tabbing buyrug'ining vazifasi nimadan iborat?

2.3.- Overleaf Onlayn LaTeX muharriri va unda ob'ektlar bilan ishlash.

Reja:

1. Overleaf.com Onlayn LaTeX muharriri
2. "Estout" to'plami
3. Suzuvchi obektlar bilan g'ayritabiiy vaziyatlar
4. Psevdo rasmini yaratish va unga ob'ektlarni joylashtirish

"Estout" to'plami

LaTeX bilan ishlash uchun (xususan, ushbu o'quv qo'llanma bilan) manba bilan ishlash bilan cheklanib qolish etarli bo'ladi.

Overleaf.com. Resurs ro'yxatdan o'tmasdan ham, hisobni ro'yxatdan o'tkazmasdan ham ishlash imkoniyatini beradi. Ikkinchisining mavjudligi foydalanuvchi uchun qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi, masalan, loyiha fayllarini saqlash.

Overleaf.comda ro'yxatdan o'tish

1-Qadam. Overleaf.com veb-saytiga o'ting.

2-Qadam. Asosiy sahifada Ro'yxatdan o'tishni bosing:



2.2.-rasm. Overleaf.com veb-sayti

Yangi hisob qaydnomasi.


3-Qadam. Hisob nomini (har qanday) va hisob bog'langan pochta qutisini kiriting. Keyin, mening hisobimni yaratish-ni bosing:

Your free Overleaf account includes

- ∞ Unlimited projects & collaborators
- 📁 Private projects as standard
- 📄 Free templates & more
- 📊 Dashboard to manage your data
- 🕒 Save & restore versions history
- 🔗 Git access

2.3.-rasm. Yangi hisob uchun ma'lumotlarni to'ldirish


4-qadam. Overleaf sizning sahifangizni ochadi:



2.5.Overleaf.com foydalanuvchisining shaxsiy hisob qaydnomasi.

Shuningdek, ko'rsatilgan pochta qutisiga ro'yxatdan o'tishni tasdiqlash haqidagi iltimosnoma bilan xat keladi (siz hali xatdagi havolalarga amal qilmasligingiz kerak).

5-Qadam. Siz parolni o'rnatishingiz kerak. Buni amalga oshirish uchun o'z hisobingizdan chiqing va xatning havolasiga o'ting (4-qadamga qarang):



2.4.Tizimdan chiqish

Xavfsizlik maqsadida elektron pochtagizdan boshqacha parol o'rnatish!

Choose your password

To complete your registration, please choose a password.

Password

Confirm password

Вводим придуманный
пароль

Повторяем пароль

Нажимаем на кнопку




2.6. Parol yaratish.

6-Qadam. Parolni tasdiqlaganingizdan so'ng, shaxsiy hisob oynasi ochiladi. Shuningdek, parolni o'zgartirish to'g'risida xabar pochta orqali yuboriladi.

7-Qadam. Hisobingiz ishlayotganligini tekshiring. Buning uchun tizimdan chiqish tugmachasini bosish orqali chiqing.


Keyin, Kirishni tanlang va ixtiro qilingan foydalanuvchi nomingiz va parolingizni kiriting. Sizing hisobingiz endi to'liq ro'yaxatdan o'tgan Foydalanuvchi funksiyalari.



2.7.-rasm. Shaxsiy kabinetda foydalanuvchi uchun mavjud bo'lgan funksiyalar.


Yangi loyihani yaratishda shablonlardan birini tanlashingiz mumkin:

«Минимальный» шаблон документа



2.9-rasm. Kod shablonini tanlash va yangi hujjat dizayni.

My Projects




К файлу можно вернуться в любой момент

Дополнительные опции: проект можно переименовать, удалить и т.д.

2.8.-rasm. Saqlangan loyihalar.


Loyihalar yorlig'i loyiha tuzilishini aks ettiradi. Siz yangi fayllar, kataloglar qo'shishingiz mumkin. va kompyuterdan:



2.10.-rasm. Loyiha kodini tahrirlash uchun loyiha tarkibi va oynasi.

Ish muhiti ikki yo'nalishdan iborat:

1. chapda tahrirlanadigan matn mavjud (TEX-markup);
2. o'ng tomonda dvi fayli aks etadi:



2.11.-rasm.Asosiy ishlash tartibi: chapda - hujjatni belgilash kodi, o'ngda - hujjat turi.

Itimos, muharrir ikkita tahrirlash rejimini qo'llab-quvvatlaydi (yuqori o'ng burchak):

1. Boy matn ("yarim vizual");
2. Manba (LaTeX manba kodi).

Bundan keyin biz manba kodi bilan ishlaymiz (o'quvchi tizim bilan ishlash texnikasini etarlicha o'zlashtirganda birinchi rejimdan foydalanishni tavsiya etamiz)!

Bizning misolimiz bilan ishlash uchun uning kodini chap oynaga nusxalash kifoya va natijani o'ngida kuting.

Hujjatning o'ng tomonidagi biron bir joyni bosganingizda, bir muncha vaqt o'tgach, muharrir kursorni tegishli satr yoki belgilash buyrug'ini o'z ichiga olgan kod satriga qo'yadi.

O'zingizning kodingizda qasddan xatoga yo'l qo'ying, masalan, \ bo'lim buyrug'idagi ba'zi harflarni olib tashlang:

```
13 \begin{document}
14 \maketitle
15 \se{\LaTeX\ для рядового пользователя}
16
17 undefined control sequence.
18 1.15 \se
19 {\LaTeX\ для рядового пользователя}
20
```

акрорасширенный
нает набор
льзователей.

2.12.-rasm. Belgilash kodidagi xatolar haqida ogohlantirish.

LaTeX kompilyatori sizga xato xabari va satr raqamini beradi. Bunday holda, "Aniqlanmagan boshqaruv ketma-ketligi" "Aniqlanmagan boshqaruv ketma-ketligi", ya'ni. \se buyruq emas.

Izoh. Ba'zi hollarda xatolarning tavsifi u qadar ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin.

Siz o'zingizning matningizga o'zgartirish kiritishingiz mumkin, masalan, bo'limlardan birining belgisini o'chirib tashlashingiz mumkin. Tahrirlovchining har bir o'zgarishi amalga oshiriladi va o'ng tomonda ko'rsatilgan yangilanadi. Ko'rish rejimini avtomatik rejimdan qo'lga o'tkazish mumkin (yuqori o'ng burchakdagi slayder):




2.13-rasm. Kompilyatsiya va hujjatlarni oldindan ko'rish rejimlari.

Overleaf.com bilan ishlashning eng keng tarqalgan muammosi - bu DVI faylini (vizual shakl) kompilyatsiya qilishning uzoq davom etish jarayoni.

Ushbu holatda:


- barcha kodlarni klaviatura buferiga yoki undan ham yaxshisini bloknotga nusxalash;
- sahifani yangilang (F5 tugmasi);
- kodni joylashtiring va natijani kuting.

Overleaf kod muharririning aqlli rejimini qo‘llab-quvvatlaydi: u maslahatlar ko‘rsatishi va buyruq yozishni avtomatik ravishda bajarishi mumkin (keying rasm). Buning uchun buyruqni kiritishni boshlang, ochiladigan ro‘yxatda kerakli narsani toping. TAB yoki RMB tugmachasini bosish orqali buyruq avtomatik ravishda to‘xtatiladi.



2.14-rasm. Overleaf.com aqlli tezkor rejimni qo‘llab-quvvatlaydi.


Asl kodingizga qayting. Menyu satrida PDF tugmasini bosing. Overleaf hujjatning PDF-versiyasini yaratadi va kompyuteringizga saqlaydi.



2.15.- Yakuniv hujjat PDF formatiga eksport qilindi

Atrof muhitni sozlash uchun tishli belgini bosing:

1. Проверка орфографии. Можно включать и отключать. Орфография проверяется по указанному языку (слова других языков будут считаться некорректными и подчеркиваться красной волнистой линией).
2. Опции по сборке и просмотру (менять не требуется).
3. Настройка стиля редактора.
4. Сохранение изменений.



2.16-rasm. Qo'shimcha muharrir sozlamalari.

"Estout" to'plami

Ushbu to'plam Makroiqtisodiyotda keng tarqalgan modellarni taqqoslash jadvallarini yaratish jarayonini tezlashtirishga mo'ljallangan. Funktsiyalar to'plami bir nechta modellarning taxminlarini saqlaydi va ularni yulduzcha va std.err shakllari jadvaliga formatlaydi. Standart chiqish LaTeXda, lekin elektron jadval vositasida keyinchalik tahrirlash uchun CSV-ga chiqish ham mumkin. Bu "plm" - paketli (plm) chiziqli modellar (lm) va panel modellari uchun ishlaydi. Amalga oshirilgan ikkita "descsto" va "descstab" funktsiyalari ma'lumotlar freymlarining tavsiflovchi statistikasini va bitta o'zgaruvchini LaTeX va CSV-ga eksport qilishga imkon beradi.

1. descclear (Tushdan keyin tozalash)

Descsto () funktsiyasi tomonidan yaratilgan dcl ob'ektini tozalash.

Foydalanish: descclear (store="default")

Argumentlar: store Saqlash, ma'lum bir chiqish jadvallari uchun saqlash birligini olib tashlang.

Qiymat: descclear (), descsto () funktsiyasi tomonidan yaratilgan dcl ob'ektida saqlangan barcha ma'lumotlarni o'chirib tashlaydi.

Muallif (lar): Feliks Kaminskiy <fkamins@uni-goettingen.de> Stata uchun xayrixohlikdan ilhomlangan.

Misollar:

```
## Not run:                                ## Ishlamaydi:
descclear()                                descclear ()
descclear(store="tab1")                    descclear (do'kon = "tab1")
## End(Not run)                            ## End (Ishlatilmaydi)
```

descsto tavsiflovchi saqlash

Tavsif: descsto "dcl" ro'yxat ob'ekti ichiga data.frames va o'zgaruvchining bitta vektorlarini sarhisob qiluvchi statistikasini saqlaydi.

Foydalanish: descsto (x, row = NULL, name = NULL, drop.row = NULL, store = "default")

Argumentlar:

x	Yoki ma'lumotlar. Kuzatish doirasi yoki bitta vektor.
name	Bitta vektor qo'shsangiz, majburiy parametr.
row	Ixtiyoriy parametr. Satr = dan foydalanib, mavjud bo'lgan "dcl" satrlarini yozishingiz mumkin.
drop.row	Chiqish jadvalidagi qatorlarni olib tashlash uchun vektor. Izoh: Qavslardan \ bilan qochish kerak. Masalan, \).
store	Bir nechta jadvallar uchun maxsus saqlash birliklarini aniqlang. Har bir birlik bitta chiqish jadvali uchun bitta ma'lumot to'plamini saqlaydi.

Qiymat: 'Dcl' ro'yxat ob'ekti qaytariladi.

Comp1	saqlanadigan o'zgaruvchilar
Comp2	o'zgaruvchan nomi, 1-kv., 2-kv., o'rtacha, o'rtacha, 3-kv., 4-kv., etishmayotgan qiymatlar
Comp3	smeta, std.error., t-value, p-value

Muallif (lar): Feliks Kaminskiy <fkamins@uni-goettingen.de> Stata uchun xayrixohlikdan ilhomlangan.

Misollar:

```
## Not run:
B <- read.table ("./ data / bwght.tab", header = TRUE)
```

```

C <- read.table ("../ data / lala.tab", header = TRUE)
attach (B)
descsto (B)
descsto (cigs, name = "cigarettes")
descsto (faminc, name = "faminc", row = 2)
descsto (store = "tabC")
## End (Not run)
Descstab- Ta'rif jadvali

```

Tavsif: Standart shakllangan jadval yaratish uchun "dcl" ob'ektida saqlangan ma'lumotlardan foydalanadi. Odatiy bo'lib LaTeX (ixtiyoriy ravishda CSV) mumkin. Shuning uchun natijani elektron jadval dasturiga import qilish va uni wordprocessor uchun tahrirlash mumkin.

Foydalanish: descstab(filename=NULL, caption = NULL, label = NULL, csv=FALSE, dcolumn=NULL, booktabs=FALSE, store="default")

Argumentlar:

filename	muqobil fayl nomini bering, sukut bo'yicha "descout.tex"
caption	LaTeX chiqish jadvalida foydalanish uchun
label	LaTeX chiqish jadvalida foydalanish uchun
csv	elektron jadval dasturiga to'g'ridan-to'g'ri import qilish uchun csv (vergul bilan ajratilgan matn fayli) ga chiqish uchun, standart TeX-chiqish
dcolumn	ustuniga belgilangan dcolumn ustun turiga a qo'shish
booktabs	agar TRUE "\ hline" ga o'rnatilsa, uning kitob satrlari bilan almashtiriladi.
store	Ushbu jadvalni chiqarish uchun maxsus saqlash blokini chaqiradi.

Suzuvchi narsalar bilan g'ayritabiiy vaziyatlar

Dastlabki matnni yozganingizda, qayerda suzuvchi illyustratsiyalar (yoki jadvallar; bundan keyin biz har safar bu bandlovni amalga oshirmaymiz) aniq aniq emas. Shuning uchun, bosib chiqarishni ko'rish va sinovdan o'tkazishda har qanday kutilmagan hodisalar mumkin. Juda jozibali ixtiyoriy h ("shu erda chop eting!") Argumentni rasm yoki jadval

muhitida ishlatganda sizni kutayotgan noqulayliklardan boshlaymiz. Agar bir vaqtning o'zida, afsuski, illyustratsiyani belgilangan joyga joylashtirish imkonsiz bo'lsa (chunki rasm o'rtasida o'rtada sahifa tanaffusi bo'lishi kerak), u holda LATEX ixtiyoriy argument h emas, ht edi. Natijada, illyustratsiya joriy yoki keyingi sahifaning yuqori qismida chop etiladi va voqea haqida xabar ekranda va jurnal faylida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, \suppressfloats buyrug'i ushbu buyruq kelgan sahifada har qanday suzuvchi illyustralarni (shuningdek jadvallarni; biz buni har safar belgilamaymiz) bosib chiqarishni taqiqlaydi. Buyruqni ixtiyoriy argument bilan ishlatishingiz mumkin: agar siz yozsangiz \suppressfloats [t], unda rasmlar ushbu sahifaning yuqori qismiga joylashtirilmaydi; agar b ixtiyoriy argument sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, unda rasmlar ushbu sahifaning pastki qismida ko'rinmaydi. Boshqa tomondan, LATEX sizga qiyinchilik tug'dirmaslik uchun emas, aksincha suzuvchi moslamalarni (rasmlar yoki jadvallar) joylashtirishni osonlashtiradi. Ya'ni, ixtiyoriy rasm yoki jadval muhiti argumentida siz t, b yoki h harflaridan oldin undov belgisini qo'yishingiz mumkin. Bunday holda, suzuvchi ob'ektni joylashtirganda, LATEX bir sahifada juda ko'p rasmlarning bor-yo'qligiga va ularning ko'p qismini egallashiga e'tibor bermaydi (LATEX odatda suzuvchi illyustratsiyalarni matnda oldinga siljitishining odatiy sabablari). \Begin {figure} [! T] buyrug'idan boshlangan illyustratsiya undov belgisiz emas, balki kechiktirmasdan chop etilishi mumkin.

Psevdo rasmini yaratish va unga ob'ektlarni joylashtirish

Psevdo-rasmlar rasm muhiti yordamida yaratiladi. Ushbu muhitni o'rganishni misol bilan boshlash qulay.

```

└─Стрелка \begin{picture}(110,50)
\put(55,15){Стрелка}
\put(55,15){\vector(-2,1){40}}
\put(0,0){\line(1,0){20}}
\put(0,0){\line(0,1){20}}
\end{picture}

```

Keling, ushbu rasmni yaratgan dastlabki matnni ko'rib chiqaylik: yozuvi va burchagi bo'lgan o'q. Har bir soxta rasm uchun LATEX matnda ma'lum bir joyni belgilashi kerak (shundan so'ng rasmning o'zi belgilangan joydan chiqib ketishi mumkin: barchasi nimani va qaerda "chizish" ga bog'liq). Ushbu kattaliklar vertikal bilan ajratilgan qavs

ichida, darhol startdan, rasmdan keyin balandlikdan (balandlikdan keyin balandlikdan keyin ko'rsatilgan) (yolg'on rasmlar bilan bog'liq buyruqlar LATEX-da yagona holatlar mavjud, ular ba'zi hollarda jingalak qavslarda emas) talab qilinadigan argumentga ega). Qavslar, vergul va psevd chizilgan o'lchamini ko'rsatadigan raqamlar orasida bo'sh joy bo'lmasligi kerak (shuni yodda tutingki, chiziqning oxiri TEX tomonidan bo'sh joy sifatida qabul qilinadi; agar chiziq uzilishining oldini olish mumkin bo'lmasa, % belgisidan foydalaning hosil bo'lgan bo'shliqni yo'q qilish, misolida bo'lgani kabi. 18). Odatiy bo'lib, psevd-chizilgan rasmning kengligi va balandligi va umuman psevd-chizmalari bilan bog'liq barcha o'lchamlari nuqtalarda o'rnatiladi (bu bizning misolimizda amalga oshiriladi). Siz yolg'on chizmalar bilan bog'liq o'lchovlar uchun har qanday o'lchov birligini belgilashingiz mumkin: buning uchun siz \unitlength parametrining qiymatini o'zgartirishingiz kerak (qarang. 25-bet va bundan keyin uzunlik parametrlari bo'yicha): agar biz uzunliklarni xohlasak millimetr bilan o'lchanishi kerak, biz preambula \unitlength = 1mm (lekin faqat mm emas!) yozishimiz kerak. Olchamlari nafaqat butun sonlar, balki kasr sonlari ham bo'lishi mumkin, unda siz kasrdan foydalanishingiz kerak (lekin vergul emas).

Shunday qilib, soxta rasm chizish uchun joy ajratilgan. Ushbu psevd-rasmga biror narsa qo'yish uchun \put buyrug'idan foydalaning (rasm muhiti ichida "xuddi shunday" matn yozmaslik kerak). \Put so'ng, vergul bilan ajratilgan qavs ichida, biz psevd-chizmaga joylashtirgan ob'ektning koordinatalari (birinchi navbatda absissa, so'ngra ordinat; asl qiymati pseudo-chizmaning pastki chap burchagi), va keyin bo'sh joysiz, jingalak qavsda, qo'llanilishi kerak bo'lgan ob'ekt. \Put buyruqlarining birinchisi uchun bu ob'ekt shunchaki matn edi va shu sababli faqat shu matn jingalak qavs ichida edi; shaklda o'q va ikkita segmentni joylashtirgan qolgan uchta buyruq uchun jingalak qavslarga yanada murakkabroq narsa qo'yilgan: ushbu o'q va segmentlarning tavsifi. Keyingi bo'limda biz bunday tavsiflarning qanday ishlashini ko'rib chiqamiz. Aytganча, yuqoridagi misoldagi burchak psevd-rasmning pastki chap burchagidan boshqa narsa emas (koordinatali nuqta (0,0)). Ob'ektning koordinatalari haqida gapirganda, biz ushbu ob'ektdagi "mos yozuvlar nuqtasi" deb nomlangan koordinatalarni nazarda tutdik. Agar ob'ekt matn bo'lsa, unda uning pastki chap burchagi kelib chiqadi. Ba'zan, matnni joylashtirishda pastki chap burchakni emas, balki uning o'ng

tomonining koordinatalarini belgilash qulayroq bo‘ladi. Buning uchun siz `\llap` buyrug‘ini bitta argument - matn bilan ishlatishingiz mumkin, uning boshlang‘ich nuqtasi pastki o‘ng burchakda bo‘ladi. Quyidagi misolda qalin mushukning kelib chiqishi pastki chap burchakda, tug‘ralgan

```
Кошка Кошка  mushuk esa pastki o‘ng tomonda bo‘ladi.
\begin {picture} (110,40)
\put (82,20) {\textbf {Cat}}
\put (80,20) {\llap {\textsf {Cat}}}}
\end {picture}
```

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar.

1. Hujjat preambulasida nima ko‘rsatilgan?
2. "Hujjat tanasi" deganda nima tushuniladi?
3. LaTeX shriftning sozlamalarini, matnning joylashishini va umuman hujjatni, agar ular preambulada tasvirlanmagan bo‘lsa, qanday qilib aniqlaydi?
4. Overleaf.com foydalanuvchilarga qanday funktsiyalarni taqdim etadi? Bepul nima bor?
5. Overleaf yangi hujjat uchun shablonni tanlashda nima qiladi?
6. Olingan hujjatni qaysi formatlarda saqlash mumkin?

2.4.- Tasvirlar bilan ishlash

Reja:

1. Chizikli tasvirlarni hosil qilish
2. Hujjatga rasm joylashtirish

Kalit so‘zlar: Multiput, unitlength , totalheight , Scale, clip,angle,

Chizikli tasvirlarni hosil qilish

Rasmlar picture tanasi orqali hosil qilinadi. Quyidagi misolni ko‘ramiz:

```

↖ Bu vektor
\begin {picture} (110,50)
\put (55,35) {\vector (-2,1) {40}}
\put (55,35) {Bu vektor}
\end {picture}
```

Bu yerda picture tanasidagi aylana qavs ichida vergul bilan ajratib yozilgan sonlar rasm chizilishi kerak bo‘lgan sohani aniqlash uchun

ishlatiladi. Bunda birinchi son rasmning vertikal uzunligini, ikkinchi son esa rasm balandligini aniqlaydi. Bu sonlar manfiy ham bo'lishi mumkin. Masalan (-150, 36) kabi. \put buyrug'i esa rasm yoki yozuvni tegishli kordinatalarga joylashtirish uchun xizmat qiladi.

Agar ko'rsatilgan kordinata band bo'lsa, tegishli rasm yoki yozuv undan keyingi kordinatalarda joylashtiriladi. Bu buyruqning argumentida joylashgan \vector buyrug'idan turli ko'rinishdagi vektorlar chizish uchun foydalaniladi.

Yuqoridagi misolda \vector (-2,1){40} ko'rinishidagi aylana qavs ichida vergul bilan ajratib yozilgan raqamlar \put buyrug'idagi kordinataga nisbatan simmetrik chizilishini aniqlaydi. Bu sonlar kattaligi -4 va 4 orasida bo'ladi. Figurali qavs ichida yozilgan son esa vector uzunligini aniqlaydi.

Yozuvlarni picture tanasida joylashtirishda ortiqcha qiyinchilik ko'rinmaydi. Shuningdek yozuvlarga turli shrift va ko'rinish berish ham murakkab emas.

Masalan

Oddiy Qalinroq

```
\begin{picture}(110,40)
\put(52,20){\bf Qalinroq}
\put(50,20){\lap{\sf Oddiy}}
\end{picture}
```

Bu yerda yozuvlar shriftini aniqlashda birinchi bo'limda ko'rib o'tgan buyruqlardan foydalandik. Yuqoridagi misolda Qalinroq yozuvini oldin yozgan bo'lsakda kordinatasi keyingi yozuvdan so'ng yozilishi haqida malumot bergani sababli, bu yozuv Oddiy yozuvidan keyin yozildi. Biz chizayotgan rasmlar sahifaning chap tomonidan chiziladi. Agar biz rasmni sahifaning o'ng tomonidan chizmoqchi bo'lsak flushright tanasidan foydalanishimiz mumkin. Markazdan chizish uchun esa center tanasidan foydalanish mumkin. Rasm chizishda ham yozuv va matematik formulalar yozishda bo'lgani kabi ichma-ich tanalarni ishlatish mumkin. Masalan center tanasini picture tanasi ichiga joylashtirish va teskarisi kabi.


Kesmalar Texda kesmalar \line buyrug'i orqali hosil qilinadi. Bu buyruq ham xuddi \vector buyrug'i kabi kordinataga nisbatan simmetriklikni va chiziq uzunligini aniqlash orqali hosil qilinadi. Masalan:



```
\begin{picture}(100,50)
\put(60,50){\line(1,-2){20}}
\end{picture}
```

Bu yerda 100 x 50 rasm chiziladigan soha (60,50) rasm kordinatasini bildiradi. \line buyrug'idagi (1,-2) esa "burchak koefitsienti"ni bildiradi. Burchak koefitsientini qiyalik burchagi sifatida tushunish mumkin. Agar qiyalik burchagi (0,1) bo'lsa gorizontal chiziq, agar (1,0) bo'lsa vertikal chiziq hosil bo'ladi. Aylana, doira va ovallar Aylana \circle buyrug'i yordamida chiziladi. Doira chizish uchun esa \circle* buyrug'idan foydalanish mumkin. Bunda doira ichi qora rang bilan bo'yaladi. Aylana va doira chizish uchun uning diametrini aniqlash kifoya.

Masalan:



```
\begin{picture}(100,80)
\put(30,30){\circle{30}}
\put(70,30){\circle{30}}
\put(30,50){\circle{30}}
\put(70,50){\circle{30}}
\put(50,40){\circle*{20}}
```

Bunda aylana kordinatasi aylana markazidan hisoblanadi. Oval (qirralari o'tkir bo'lmagan to'rtburchak) chizish uchun \oval buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruqqa parametr sifatida gorizontal va vertikal uzunliklari aniqlanadi. Kordinata oval markazidan belgilanadi. Masalan:

```
\begin{picture}(100,80)
\put(50,40){\oval(100,80)}
\end{picture}
```

Kiritish majburiy bo'lmagan parametrlardan biri bu ovalning bir qismini o'chirishdir. To'liq bo'lmagan oval chizish uchun \oval buyrug'i parametriga yana bir parametrni qo'shish kerak bo'ladi. Bu parametr orqali ovalning bir qismini olib tashlash mumkin. Bu parametrlar quyidagi to'rtta harf bilan ifodalanadi.

- t yuqori yarmi
- b pastki yarmi
- r o'ng yarmi
- l chap yarmi

Bu to'rtta harfni nafaqat yakka balki birdaniga ham kiritish mumkin. Masalan tr yuqori o'ng burchakni bildiradi.

Misol:


```
\begin{picture}(100,80)
put(50,40){oval(80,60){t}}
put(50,40){oval(80,60){br}}
end{picture}
```

Qo'shimcha imkoniyatlari Ayrim hollarda rasm chizishda bir necha obyektlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda \put buyrug'idan foydalanib bo'lmaydi. Lekin \multiput buyrug'i orqali hosil qilingan obyektни \multiput buyrug'idan foydalanib o'zgartirish kiritish mumkin. Bu buyruq ko'rinishi quyidagicha

```
\multiput(x,y)(\Delta x,\Delta y){n}{obyekt}
```


Bu yerda x

va y natijaviy obyekt kordinatasi(xuddi \put dagi kabi) , Δx va Δy esa ko'rsatilgan obyektning gorizontaal va vertikal siljish kordinatalari , n – obyektlar soni , obyekt – tanlangan obyekt.Masalan:



```
\begin{picture}(100,80)
\multiput(10,70)(8,-6){8}{%
{circle*{3}}}
\end{picture}
```

Bu yerda foydalanilgan % (foiz) belgisi yangi qator tashkil etish uchun xizmat qiladi. Bunda yetarlicha bo'sh joy qoldirish orqali qatorlar mosligi ta'minlanadi. Boshqa hollarda bu belgi izoh vazifasini bajaradi. Endi \multiput buyrug'i yordamida yaratilgan yana bir rasmni ko'raylik.



```
\begin{picture}(100,50)
\multiput(0,0)(10,0){10}{%
{\line(1,5){10}}}
\multiput(0,0)(2,10){6}{%
{\line(1,0){90}}}
\end{picture}
```

Bu misolda gorizontaal qiya va vertikal tik chiziqlardan foydalanib yuqoridagi rasm hosil qilindi. Endi \put buyrug'iga qaytamiz. U orqali quyidagi rasmni chizamiz. Bir qarashda bu rasmni chizish murakkabdek tuyuladi. Lekin bu rasmni oddiy \put buyrug'i orqali ham chizish mumkin. Buning uchun ma'lum tartibga rioya qilish kerak xolos.

Hujjatga rasm joylashtirish

Rasm o'Ichamlari

Biz hozirga qadar rasmlar chizish haqida to'xtalib o'tdik. Biz chizgan rasmlar Latex standart o'Ichamida edi. Lekin Texda foydalanuvchi xoxishiga qarab rasm o'Ichamini o'zgartirish mumkin. Bunda `\unitlength` buyrug'idan foydalaniladi. Bunda uzunlik millimetrdan quyidagi ko'rinishda ko'rsatiladi.

`\unitlength=1mm`

Shuningdek rasmda qatnashgan chiziqlar qalinligi uchun `\thinlines` va `\thicklines` buyruqlaridan foydalaniladi. Aynan gorizontal va vertikal chiziqlar uchun `\linethickness` buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruq ko'rinishi quyidagicha: `77 \linethickness{2.5mm}` Bu buyruqdan keyin rasmda qatnashgan gorizontal va vertikal chiziqlar 2.5mm qalinlikka ega bo'ladi.

Hujjatga tayyor rasm joylashtirish

Sahifaga rasm joylashtirishda `graphics` paketidagi maxsus `\includegraphics[xususiyatlar]{fayl}` buyrug'idan foydalaniladi. Xususiyatlar-rasm xususiyatlarini aniqlaydi, bir necha xususiyatlar vergul orqali ajratiladi.

Xususiyatlar `xususiyat=qiymat` ko'rinishda aniqlanadi. Bu qismni kiritish majburiy emas. Bu buyruq ko'rsatilgan faylni `eps` – kengaytmali (agar `dvips` drayveri o'rnatilgan bo'lsa) va `pdf` – kengaytmali (agar `pdftex` drayveri o'rnatilgan bo'lsa) rasmlar orasidan qidiradi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki ko'rsatilgan rasmni qidirish faqat joriy hujjat `tex` kengaytma bilan saqlanayotgan manzilda amalga oshiriladi. Misol:



`\includegraphics{kapalak}`

Bunda asosiy faylimiz (`tex` kengaytmali) joylashgan katalogda `kapalak.pdf` fayli joylashgan. Shu sababli rasm kengaytmasiz (`.pdf` bo'lgani uchun) ham chaqirilyapti. Rasm o'Ichamlarini o'zgartirish Yuqorida ko'rib o'tgan `\includegraphics` buyrug'i xususiyatlaridan foydalanib rasm o'Ichamlarini o'zgartirish mumkin. Bunda rasm kengligi va balandligi aniqlanadi. Bular:

width=kenglik
height=balandlik
totalheight=balandlik

Bunda o'lichamlarni Texning barcha turdagi uzunlik birliklarida berilishi mumkin. Masalan:



`\includegraphics[width=1in,height=10mm]{a}`

Agar rasm o'lichamlarini aniqlayotgan paytda tasvir bilan bog'liq muammolar uchraydigan bo'lsa `keepaspectratio` parametridan foydalangan ma'qul. Yuqoridagi misol uchun `\includegraphics[width=1in,height=1cm,%keepaspectratio]{a}` kabi bo'ladi. Rasm o'lichamlarini aniqlashga doir parametrlardan yana biri

`scale`=o'lcham parametridir. Bu parametr argumentiga rasm haqiqiy o'lichamlariga nisbatan sonlar yoziladi. Agar biz rasmni o'z o'lichamlarida chiqarmoqchi bo'lsak `scale=1` yozish kifoya. Rasm o'lichamlarini teng yarmicha qisqartirish esa `\includegraphics[scale=0.5]{kapalak}` orqali amalga oshiriladi.

Rasm qismlarini joylashtirish Rasmni sahifaning ixtiyoriy qismida (yozuvlar usti yoki ostidan ham) joylashtirish mumkin. Bunda bizga `viewport` parametri yordam beradi. Uning ko'rinishi quyidagicha:

`viewport=llx lly urx ury`

Bu yerda `x` va `y` lar rasmning chap pastki va o'ng yuqori burchak kordinatalari. Bu buyruq qo'llanilgandan so'ng agar kordinatalar oldingi yozuvlar kordinatalari bilan ustma-ust tushib qolsa ular orqa fonda qolib ketadi va bizga faqat rasm ko'rinadi. Ajoyib parametrlardan yana biri bu `trim` parametridir. Bu parametr rasmning tegishli qismini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bu parametr umumiy ko'rinishi quyidagicha:

`trim=dl db dr du`

Bunda ham xuddi `viewport` buyrug'i kabi ko'rinishda uzunliklar aniqlanadi. Bu parametrga yordamchi kalit so'z bu `clip` so'zidir. Uning ko'rinishi quyidagicha:

`clip=mantiqiy`

Bu kalitdagi mantiqiy qiymat `rost(true)` yoki `yolg'on(false)` qiymat qabul qiladi. Agar biz bu ifodaga `true` qiymat bersak, u holda ko'rsatilgan

rasmning belgilangan qismini ko'rsatib qolgan qismi ko'rsatilmaydi.
Masalan:




```
\includegraphics[trim=-5 -5 16 16,clip]{kapalak}
```

2.17-Rasmni burish Rasmni burish angle parametri orqali amalga oshiriladi.

Bu parametr umumiy ko'rinishi quyidagicha:

angle=burchak

Bu parametr soat strelkasiga teskari burchakga buradi. Masalan:



```
\includegraphics[scale=0.4,angle=30]{kapalak}
```

Nazorat savollari

1. Chiziqli tasvirlar qanday hosil qilinadi?
2. Hujjatga tayyor rasmlar qaysi buyruqlar orqali amalga oshiriladi?

III BOB.

LATEXNING GRAFIK IMKONIYATLARI, MURAKKAB FORMULALAR VA LATEXDA DASTURLASH ASOSLARI

3.1.- LATEX NING GRAFIK IMKONIYATLARI

Reja:


1. LaTeX ning grafik imkoniyatlari
2. Ranglar modeli.named modeli
3. Yozuvlarni turli usullarda ranglash

Kalit so'zlar: Includegraphics, Transformatsiyalash, textcolor, rgb, gray, cmyk

LaTeX ning grafik imkoniyatlari


Oldingi darsimizda kapalak.pdf rasmi orqali barcha kerakli o'zgartirishlarni bajardik. Bunda biz faqat rasm nomini ko'rsatish bilan cheklandik. Agar biz ko'p qo'llaniladigan rasm formatlaridan foydalanmoqchi bo'lsak albatta uni 80 kengaytmasi bilan ko'rsatishimiz kerak. Bunda quyidagi kengaytmalarni ko'rsatish mumkin: png, pdf, jpg, mps, tiff Masalan:

```
\includegraphics[width=8cm,height=6cm]{aimp.jpg}
```



3.1-Rasmni kengaytma bilan ko'rsatishda ham yuqoridagi rasmni kengaytmasiz chaqirish bilan bog'liq barcha parametrlar o'rinli. Shuningdek rasmni keyinchalik joylashtirish uchun joy qoldirish ham mumkin. Bunda rasm chegaralari ramka bilan o'raladi va rasm nomi yozib qo'yiladi. Bunda draft

parametridan foydalaniladi. Masalan:



kapalak.pdf

```
\includegraphics[width=1.5cm,draft]{kapalak}
```

Bir qatorda bir necha rasm joylashtirish Texda bir qatorda bir necha rasm ham joylashtirish mumkin. Bunda



a)



b)

```
\begin{minipage} .. \end{minipage} tanasidan foydalaniladi.Misol:
\begin{figure}[h]
\begin{minipage}[h]{0.49\linewidth}
\center{\includegraphics[width=0.5\linewidth]{kapalak}}
\\ a)} \end{minipage}
\hfill \begin{minipage}
[h]{0.49\linewidth}
\center{\includegraphics[width=0.5\linewidth]{kapalak}}
\\ b)} \end{minipage}
```

Rasm maydonida formula kiritish

Rasm joylashtiriladigan maydonda formula kiritish uchun rasm obykti o‘rniga formula yozish kifoya.Albatta formula yoziladigan joy to‘g‘ri ko‘rsatilishi shart.Masalan:



$$s := \frac{a + b + c}{2}$$

```
\setlength{\unitlength}{0.8cm}
\begin{picture}(6,5)
\put(3.5,0.4){\displaystyle
s:=\frac{a+b+c}{2}}
\put(1,1){\includegraphics[
width=2cm,height=2cm]{kapalak}}
\end{picture}
```

Box(maxsus quti)lar o‘lchamini o‘zgartirish

Box o‘lchamlari quyidagi buyruq orqali aniqlanadi: \resizebox{kenglik}{balandlik}{matn} Bu usul juda qulay bo‘lib istalgan matn qismlarida kerakli qismni ajratib ko‘rsatish uchun foydalanish mumkin. Masalan:

BDU

`\resizebox{4cm}{8mm}{BDU}`

Kenglik va balandlik o'rtasidagi munosabatni moslashtirish uchun! belgisidan foydalaniladi. Masalan:

BDU

`\resizebox{3cm}{!}{BDU}\`

Transformatsiyalash

Matni transformatsiyalash `\scalebox` buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Bu buyruq ko'rinishi quyidagicha:

`\scalebox{h-o'lcham}{v-o'lcham}{matn}`

Bunda h-o'lcham yozuv gorizonttal o'lchami, v-o'lcham esa yozuv vertikal o'lchami hisoblanadi. Har ikkala o'lcham ham manfiy qiymat qabul qilishi mumkin. Bunda yozuv oynada akslangandek ko'rinish hosil qiladi. matnda istalgancha yozuv yozish mumkin (probel bilan ham). Masalan:

`\scalebox{-1.5}{3}{BDU}` `\scalebox{1.5}{% [-3]{BDU}`

BDU

BDU

Blokni oynadagi kabi akslantirish


Yozuvlar blokni xuddi oynadagi kabi akslantirish uchun

`\reflectbox{matn}` buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruq `\scalebox{-1}{1}{matn}` bilan teng kuchli. Blokni burish Blokni burish uchun `\rotatebox[parametrlar]{burchak}{matn}` 83 buyrug'idan foydalaniladi. Bunda parametrlar – maxsus kalit so'zlar, burchak – soat strelkasiga qarama-qarshi ravishda ko'rsatilgan burchakka burish uchun xizmat qiladi, matn – kiritiladigan matn. Masalan:

salom salom

`{\huge salom \rotatebox{30}{salom}}`

Kiritish majburiy bo'lmagan parametrlar qismi kordinata o'qlari, burchak uzunligi va boshqa o'zgarishlar uchun mo'ljallangan. Bir necha parametrlar vergul orqali ajratiladi. Parametrlar umumiy ko'rinishi quyidagicha kalit so'z=qiymat Origin=qiymat kalit so'zi orqali kordinata o'qining joylashuvi aniqlanadi. Bunda qiymat sifatida 12 ta joylashuvni berish mumkin. Ular quyidagilar:



Bunda lt(chap yuqori burchak) , t(yuqori) , rt(o'ng yuqori burchak) va qolganlari ham yozilgan kordinatalarda joylashadi. Markazdan pastroqda chizilgan gorizontaal chiziq esa baza chizig'i deb yuritiladi. O'qni chap yuqoridan joylashtirish uchun quyidagicha yoziladi: origin=lt. Shuningdek kordinata

o'qlarini aniq nuqtalar orqali ham joylashtirish mumkin. Bunda quyidagi kalit so'zlardan foydalaniladi:

x=masofa1

y=masofa2

Masalan [x=4mm,y=3mm] yozuv absissa bo'yicha 4mm , ordinata bo'yicha esa 3mm uzunlik berilganini bildiradi.

units=raqam kalit so'zi orqali kerakli burchakga burish mumkin.

Masalan:

burchak

`\rotatebox[origin=c,units=4]{0.75}{\huge burchak}`

Ranglar modeli.named modeli

Odatda named modeli avtomatik holda yuklangan bo'ladi. Lekin ranglar bilan ishlash uchun biz maxsus color paketidan foydalanamiz. Bu paket orqali sakkiz turdagi ranglardan foydalanish mumkin. Ular quyidagi jadvalda berilgan:

black (qora)

white (oq)

red (qizil)

green (yashil)

blue (ko'k)

cyan (moviy,havo rang)

magenta (qirmizi)

yellow (sariq)

Bu ranglardan color paketi yuklangandan keyin foydalanishimiz mumkin. Bunda bizga `\textcolor` buyrug'i yordam beradi. Masalan:

ko'k x^2 .

`\textcolor{blue}{ko'k \fbox{x^2}.}`

Agar color paketiga usenames xususiyatini qo'shsak ranglarimiz soni 68 taga yetadi. Bu ishni quyidagicha qilish mumkin `\usepackage[usenames]{color}` Bunda color paketi dvips drayveridan foydalanadi. Endi misol ko'ramiz:

yashil U. `\textcolor{green}{yashil \bigcup}`
Agar dvips drayveri usenames xususiyatini qo'llab quvvatlamasa u holda yana named modelidan foydalanishimiz mumkin. U holda quyidagicha yozamiz:
`\textcolor[named]{green}{yashil \bigcup}`

rgb modeli

Bu model istalgan rangni o'z bazasidagi uch turdagi rang bilan ifodalab beruvchi modeldir. Bu uchta rang qizil(red r), yashil(green g), ko'k(blue b)dir. Bunda rang kodi kiritiladi. Masalan 1,1,0 kod sariq rangni bildiradi va h.k.

gray modeli

Bu model ham rgb modeliga o'xshash bo'lib kodlash faqat bitta son bilan, 0 va 1 orasida amalga oshiriladi. Masalan rgb dagi 0.5,0.5,0.5 bu yerda 0.5 ga teng. Qora rang uchun 0, oq rang uchun esa 1 kod mos keladi.

cmyk modeli

Bu modelda ranglarni kodlash to'rtta rang ustida amalga oshiriladi. Ular moviy(cyan), qirmizi(magenta), sariq(yellow) va qora(black) ranglardir. Bunda oq rang uchun 0,0,0,0 kodlash, qora uchun esa 0,0,0,1 kodlash mos keladi.

Yozuvlarni turli usullarda ranglash

Yozuvlar rangi uchun quyidagi `\textcolor[model]{rang}{matn}` buyrug'idan foydalanish mumkin. Quyidagi misolda shu buyruqni turli variantlarda qo'llab ko'ramiz

Qizil, `\textcolor{red}{Qizil,}`
qizil, `\textcolor{cmyk}{0,1,1,0}{qizil,}`
va yana qizil! `\textcolor[rgb]{1,0,0}{va yana qizil!}`

Box(qism)larni ranglash Qismlarni ranglash uchun maxsus `\colorbox[model]{rang}{matn}`

buyrug'i ishlatiladi. Bu buyruqni ishlatish yuqoridagi buyruqlar kabi bo'ladi. Boxlarga doir yana bir ajoyib buyruq bu `\fcolorbox[model]{chegara rangi}{orqa fon rangi}{matn}` buyrug'idir.

Masalan:

yozuv...

`\fcolorbox{red}{yellow}{yozuv\dots}\`

Sahifa rangini o'zgartirish Sahifa rangini o'zgartirish uchun `\pagecolor[model]{rang}` buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruq ham yuqoridagi buyruqlar kabi ishlatiladi. Shuningdek `\pagecolor{rang nomi}` dan ham foydalanish mumkin. Masalan `\pagecolor{white}` kabi.

Nazorat savollari

1. Box(maxsus quti)lar o'lchamini o'zgartirish qanday amalga oshiriladi?
2. Rasm maydonida formula kiritish qaysi buyruq orqali amalga oshiriladi
3. Blokni oynadagi kabi akslantirish haqida ma'lumot bering?
4. Yozuvlarni turli usullarda ranglash qanday amalga oshiriladi?

3.2.- Matematik formulalar bilan ishlash

Reja:

1. Matematik formulalar kiritish
2. Formulaga nomer qo'yish
3. Matematik formulalarda odatiy va noodatiy shriftlar

Kalit so'zlar: Matematik va munosabat belgilari,oddiy belgilar, formulalar

Matematik formulalar kiritish

Matematik va munosabat belgilari,oddiy belgilar

Matematikada ko'p hollarda grek harflaridan foydalaniladi. Shu sababli biz ham LATEXda matematik formula kiritishni grek harflarini kiritishdan boshlaymiz. LATEXda grek harflarini kiritish buyrug'i " \backslash " belgisi va shu belgining

inglizcha nomini yozish orqali.

Bu harfni kiritish uchun kursivda yozilganlotincha "o" harfi,yoki odatdagidek o harfini kiritish kifoya. Misol tariqasida bir necha grek harflarining LATEXda yozilishini jadvalini keltiramiz.

α	<code>\alpha</code>	β	<code>\beta</code>	γ	<code>\gamma</code>
δ	<code>\delta</code>	ϵ	<code>\epsilon</code>	ε	<code>\varepsilon</code>
ζ	<code>\zeta</code>	η	<code>\eta</code>	θ	<code>\theta</code>
ϑ	<code>\vartheta</code>	ι	<code>\iota</code>	κ	<code>\kappa</code>
λ	<code>\lambda</code>	μ	<code>\mu</code>	ν	<code>\nu</code>
ξ	<code>\xi</code>	π	<code>\pi</code>	ϖ	<code>\varpi</code>
ρ	<code>\rho</code>	ϱ	<code>\varrho</code>	σ	<code>\sigma</code>
ς	<code>\varsigma</code>	τ	<code>\tau</code>	υ	<code>\upsilon</code>
ϕ	<code>\phi</code>	φ	<code>\varphi</code>	χ	<code>\chi</code>
ψ	<code>\psi</code>	ω	<code>\omega</code>		

Bu ro'yhatga Σ va Π larni kiritish noto'g'ri. Bu belgilar yig'indi va ko'paytmani bildirgani bois maxsus buyruqlar yordamida kiritiladi. Lotin harflarini

kiritganda katta va kichik harflar bilan kiritish avtomatik tarzda aniqlanadi. Grek harflarini kiritishda esa “\” dan keyin harf nomi yozilayotganda birinchi harf katta harf bilan yoziladi. Bir necha harflar ro'yhati

Γ \Gammaamma Δ \Deltaelta Θ \Thetatheta
 Λ \Lambdada Ξ \Xixi Π \Piipi
 Σ \Sigmadada Φ \Phidada
 Ψ \Psidada Ω \Omegada

Endi binar amallari haqida. Binar amallar(ko'paytirish bo'lish va h.k) ni qo'llashda ayrim amallarni ketma- ket yozish kerak bo'lsa hech qanday probelsizdavomidan yozish mumkin. Binar amallarning to'liq ro'yhati:

$+$	<code>+</code>	$-$	<code>-</code>	\times	<code>\times</code>
\pm	<code>\pm</code>	\mp	<code>\mp</code>	\cdot	<code>\cdot</code>
\div	<code>\div</code>	\setminus	<code>\setminus</code>	\cap	<code>\cap</code>
\circ	<code>\circ</code>	\bullet	<code>\bullet</code>	\sqcap	<code>\sqcap</code>
\cup	<code>\cup</code>	\oplus	<code>\oplus</code>	\sqcup	<code>\sqcup</code>
\sqcup	<code>\sqcup</code>	\vee	<code>\vee</code>	Δ	<code>\Delta</code>
\oplus	<code>\oplus</code>	\ominus	<code>\ominus</code>	\otimes	<code>\otimes</code>
\odot	<code>\odot</code>	\oslash	<code>\oslash</code>	\triangleleft	<code>\triangleleft</code>
\triangleright	<code>\triangleright</code>	\amalg	<code>\amalg</code>	\diamond	<code>\diamond</code>
\wr	<code>\wr</code>	\star	<code>\star</code>	\dagger	<code>\dagger</code>
\ddagger	<code>\ddagger</code>	\bigcirc	<code>\bigcirc</code>	Δ	<code>\Delta</code>
∇	<code>\nabla</code>				

Keyingi jadvalimiz binar amallarning yana bir turi munosabat amallari:

<	>	=	=
:	\le	\ge	
\ne	\sim	\simeq	
\approx	\cong	\equiv	\equiv
\ll	\gg	\doteq	
\parallel	\perp	\in	
\notin	\ni	\subset	
\subaeteq	\supset	\supseteq	
\succ	\prec	\succeq	
\preceq	\asymp	\sqsubseteq	
\sqsupseteq	\models	\vdash	
\dashv	\smile	\frown	
\mid	\bowtie	\Join	
\propto			

Keyingi jadvalimiz yoʻnalish koʻrsatgichlari(strelkalari). Latex koʻplab koʻrsatgichlarning vertikal va gorizontal variantlarini taqdim etadi.

→	\to	→	\longrightarrow	⇒	\Rightarrow
⇒	\Longrightarrow	→	\hookrightarrow		
→	\mapsto	→	\longmapsto	↪	\leadsto
←	\gets	←	\longleftarrow	⇐	\Leftarrow
⇐	\Longleftarrow	←	\hookleftarrow		
↔	\leftrightarrow	↔	\longleftrightarrow		
↔	\Leftrightarrow	↔	\Leftrightarrow		
↑	\uparrow	↑	\Uparrow		
↓	\downarrow	↓	\Downarrow		
↑	\updownarrow	↓	\Updownarrow		
↗	\nearrow	↘	\searrow		
↖	\swarrow	↘	\nvarrow		
↵	\leftharpoonup	↵	\rightharpoonup	↵	\leftharpoondown
↵	\rightharpoondown	↵	\rightleftharpoons		

Keyingi jadvalimiz sinus tipli amallar. Matematikada koʻp qoʻllanadigan bu tipdagi amallar yaʼni sin, log va h.k lar Latexda ham xuddi shunday yoziladi. Shuningdek istalgan funksiyaning quyi va yuqori indeksidan foydalanish mumkin.

log	\log	lg	\lg	ln	\ln
arg	\arg	ker	\ker	dim	\dim
hom	\hom	deg	\deg	exp	\exp
sin	\sin	arcsin	\arcsin	cos	\cos
arccos	\arccos	tan	\tan	arctan	\arctan
cot	\cot	sec	\sec	csc	\csc
sinh	\sinh	cosh	\cosh	tanh	\tanh
coth	\coth				

Bu yerda funksiyalar ingliz tilidagi ko‘rinishida yozilgan. O‘zbek tilida tangens “tg” ko‘rinishda qabul qilingan. Shuning uchun tangensni yozish uchun \tg yozish kifoya. Lekin odatda agar Latexda yozilayotgan hujjat tili ko‘rsatilmasa, avtomatik holda ingliz tili(english) tanlanadi. Bunday holda Latex \tg buyruqni tanimaydi. Agar biz \tg ni ishlatmoqchi bo‘lsak hujjat boshida \usepackage ga russianni kiritib qo‘yish yetarli. Chunki rus tilida ham tangens “tg” ko‘rinishda qabul qilingan. Latexda tillar paketiga hali o‘zbek tili kiritilmagani tufayli rus tili paketidan foydalanish qulay. Xullas natija \usepackage[russian]. Kotangens(ctg) ham xuddi shu ko‘rinishda kiritiladi.

Endi oliy matematikada ko‘p ishlatiladigan belgilar:

Σ	\sum	Π	\prod	\cup	\bigcup
\cap	\bigcap	\coprod	\coprod	\oplus	\bigoplus
\otimes	\bigotimes	\odot	\bigodot	\vee	\bigvee
\wedge	\bigwedge	\uplus	\biguplus	\sqcup	\bigsqcup
lim	\lim	lim sup	\limsup	lim inf	\liminf
max	\max	min	\min	sup	\sup
inf	\inf	det	\det	Pr	\Pr
gcd	\gcd				

Ko‘p ishlatiladigan buyruqlardan yana biri integral belgisi uchun qo‘llanadigan buyruqdir. Latexda odatiy integral (\int) kiritish uchun \int buyrug‘i, konturli integral (\oint) uchun \oint buyrug‘i ishlatiladi. Integralning yuqori va pastki indeksleri va integral osti funksiya ham kiritish mumkin.

$$\int_0^1 x^2 dx = 1/6$$

Masalan:

$$\int_0^1 x^2 dx = 1/6$$

Agar integral chegaralari indeksda emas, yuqori va quyi chegarada bo‘lishi lozim bo‘lsa, u holda `\int` buyrug‘ini `\limits` buyrug‘i bilan birgalikda ishlatishimiz mumkin. Masalan:

$$\int_0^1 x^2 dx = 1/6 \quad \text{\$}\int\limits_0^1 x^2 dx=1/6\text{\$}$$

Agar chegaralar boshqacha ko‘rinishda bo‘lsa ya’ni turli xil operatorlar va belgilardan iborat bo‘lsa `\nolimits` dan foydalanish mumkin. Masalan:

$$\prod_{i=1}^n i = n! \quad \text{\$}\prod\limits_{i=1}^n i=n!\text{\$}$$

Boshqa zarur belgilar

Biz Latexning deyarli barcha asosiy matematik belgilarini ko‘rib o‘tdik. Keyingi jadvalimizda oldingi biror turdagi jadvalga kirmagan belgilarni ko‘rib o‘tamiz.

∂	<code>\partial</code>	Δ	<code>\triangle</code>	\angle	<code>\angle</code>
∞	<code>\infty</code>	\forall	<code>\forall</code>	\exists	<code>\exists</code>
\emptyset	<code>\emptyset</code>	\neg	<code>\neg</code>	\aleph	<code>\aleph</code>
$'$	<code>\prime</code>	\hbar	<code>\hbar</code>	∇	<code>\nabla</code>
\imath	<code>\imath</code>	\jmath	<code>\jmath</code>	ℓ	<code>\ell</code>
$\sqrt{\quad}$	<code>\surd</code>	\flat	<code>\flat</code>	\sharp	<code>\sharp</code>
\natural	<code>\natural</code>	\top	<code>\top</code>	\perp	<code>\bot</code>
\wp	<code>\wp</code>	\Re	<code>\Re</code>	\Im	<code>\Im</code>
\backslash	<code>\backslash</code>	$\ $	<code>\ </code>	\spadesuit	<code>\spadesuit</code>
\clubsuit	<code>\clubsuit</code>	\diamond	<code>\diamondsuit</code>	\heartsuit	<code>\heartsuit</code>
Υ	<code>\mho</code>	\square	<code>\Box</code>	\diamond	<code>\Diamond</code>
\dagger	<code>\dag</code>	\S	<code>\S</code>	\copyright	<code>\copyright</code>
\ddagger	<code>\ddag</code>	\P	<code>\P</code>	\pounds	<code>\pounds</code>

Oxirgi 6 ta formulani nafaqat formulada balki matn kiritishda ham shlatish mumkin. Shuningdek bu ro‘yhatda bo‘lgan `\nabla` buyrug‘i `\bigtriangledown` bilan bir xil emas. Endi oxirgi jadvalga o‘tamiz. Bu advalimizda matematik belgilar jadvali keltirilgan:

* * yoki \ast	≠ \ne yoki \neq
≤ \le yoki \leq	≥ \ge yoki \geq
[[yoki \lbrack]] yoki \rbrack
{ \{ yoki \lbrace	} \} yoki \rbrace
→ \to yoki \rightarrow	← \gets yoki \leftarrow
∃ \ni yoki \owns	∧ \wedge yoki \land
∨ \vee yoki \lor	¬ \neg yoki \lnot
∥ \Vert yoki \	

Formulaga nomer qo'yish

Matematik matn yozishda odatda qulay bo'lishi uchun formulaga nomer qo'yib, unga yo'llanma(ссылка) orqali o'tiladi. LATEXda yo'llanmalarga avtomatik o'tish mumkin. Formulaga nomer qo'yish faqat formula yozish tugatilgandan so'ng amalga oshiriladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi.

Formula yozish tanasida equation (\$\$ belgisidan foydalanilmaydi) dan foydalanilsa LATEX formula nomerini avtomatik tarzda aniqlaydi va natijaga chiqaradi. Shuningdek begin{equation} va end{equation} buyruqlari orasida formula nomi, qay ko'rinishda va qayerda joylashishini aniqlash uchun \label buyrug'idan foydalaniladi. Oxirida \ref buyrug'i orqali formulaga izohlarni ko'rsatish mumkin. Masalan:

Birinchi sinf o'quvchilari buni bilishi kerak	\begin{equation}
buni bilishi kerak\$\$	\$\$ Birinchi sinf o'quvchilari
7 × 9 = 63 (1)	7\times 9=63 (1) \end{equation}
formuladan quyidagi natija kelib quyidagi kelib chiqadi.	(\ref{trivial}) formuladan 63/9=7 chiqadi. 63/9=7

Bu yerda \ref o'rniga \pageref buyrug'idan ham foydalanish mumkin. Bu buyruq formula nomerini emas formula joylashgan sahifa nomerini qaytaradi.

Yuqoridagi misolda agar formula 8 sahifaga yozilgan desak Bu formula 8 betda yozilgan. Bu formula `\pageref{trivial}` betda yozilgan. Formula nomerlari ko‘rinishlari bevosita joriy sinflarga bog‘liq. Masalan article sinfida formulaga nomer qo‘yishda to‘g‘ridan to‘g‘ri keyingi nomerga o‘tib ketiladi. book sinfida esa avval mavzu keyin esa nuqtadan keyin shu mavzudagi formula nomeri ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan 2-mavzudagi 7-formula 2.7 ko‘rinishda bo‘ladi. Bunda albatta sinfga mos ko‘rinishlar hosil bo‘ladi. 46 Albatta bunday standart ko‘rinishlar ko‘p ishlatiladi va ular ortiqcha harakatni talab etmaydi. Lekin siz formula nomeri ko‘rinishini o‘zingizga moslashingiz mumkin. Bunda `\eqno` buyrug‘idan foydalanishingiz mumkin. Masalan:

Birinchi sinf o‘quvchilari	Birinchi sinf o‘quvchilari
$7 \times 9 = 63$ (3.2)	$7 \times 9 = 63$ <code>\eqno</code> (3.2)
ni bilishi kerak.	ni bilishi kerak.

Bu yerdagi birinchi `$$` belgi formula boshlanishi va oxirgi `$$` belgi formula oxirini ko‘rsatadi. Shuningdek bu belgilar orasida matematik yozuvlarga tegishli parametrlarni berish mumkin. Masalan:

<code>\$\$</code>	
$7 \times 9 = 63$ <i>hisoblash juda oddiy</i>	$7 \times 9 = 63$ hisoblash juda oddiy
<code>\$\$</code>	

Bundan ko‘rinib turibdiki matematik formula ichida yozuvni oddiy usulda kiritish mumkin emas. Aks holda Latex kiritilgan yozuvni kursivda chiqaradi. Bu muammoni hal qilish uchun `\mbox` buyrug‘idan foydalanamiz. Bu buyruqni shu misolda qo‘llaymiz:

<code>\$\$</code>	
$7 \times 9 = 63$ hisoblash juda oddiy	$7 \times 9 = 63$ <code>\mbox{hisoblash juda oddiy}</code>
<code>\$\$</code>	

Kutilgan natijaga erishildi. Yozuvdan keyin formula kiritilsa va undan keyin yana yozuv yozish talab etilsa yana shu usulni qo‘llash mumkin. Shunga o‘xshash boshqa parametrlar ham berish mumkin. Biz formulaga nomer qo‘yishda `\eqno` buyrug‘idan foydalandik. Texda formulaga nomer qo‘yishda `\leqno` buyrug‘idan ham foydalanadi. Bu ikki buyruqning bir biridan farqi `\eqno` formula nomerini o‘ng tomonda `\leqno` esa chap tomonda yozadi. Shunga doir misol ko‘ramiz:

Ajoyib o'xshashlik

$$(*) \quad \sin^2 x + \cos^2 x = 1$$

Buni o'ninchi sinflar bilishadi.

Ajoyib o'xshashlik

SS

$$\backslash \sin^2 x + \backslash \cos^2 x = 1$$

\leqno (*)

SS

Buni o'ninchi sinflar bilishadi.

Garchi \leqno va \leqno buyruqlari orqali siz istagandek nomerlash amalga oshirilsada avtomatik tarzda yo'llanma(ссылка) bermaydi.

Matematik formulalarda odatiy va noodatiy shriftlar

Yuqoridagi misollarda barcha lotin harflarini odatdagi ko'rinishda kiritishda avtomatik tarzda kursiv ko'rinishda chiqarilishini ko'rib o'tdik. Agar boshqa turdagi shriftlarda chiqarmoqchi bo'lsak albatta kerakli buyruqlarni bilishimiz kerak. Matnlarni formulalarda kiritishda quyidagi shriftlarni ko'rib o'tamiz.

\sl-qiya yozuv, bu shrift kursivga o'xshash bo'lsada aslida undan farq qiladi. \bf-semizroq yozuv. Microsoft Worddagi Ж tugmasi vazifasini bajaradi.

Bu **semizroq shrift**da,
yozilgan, \\

bu esa *qiyaroq shrift*da,
yozilgan, \\

bu esa oddiy shriftda yozilgan.
yozilgan.

Bu \bf semizroq shriftda

bu esa \sl qiyaroq shriftda

bu esa \rm oddiy shriftda

Bu misoldagi \rm buyrug'i odatiy standart shrift ("roman") ni bildiradi. Shuningdek agar siz faqat ma'lum so'z yoki ma'lum qismni semizroq shriftda yozmoqchi bo'lsangiz kerakli qismni figurali qavs ichiga olib uni ichiga \bf yozish mumkin. Masalan:

Bu yozuvda faqat {\bf bu} qism semizroq yozilgan.

Matnda shriftlarni almashtirishda yana bir qulay usullardan biri ichma-ich guruhlash tushunchasi. Yozishni avval **qalinroq yozuvdan boshlaymiz, endi vaqtincha kursivga** boshlaymiz, endi vaqtincha \it kursivga o'tamiz va yana **qalin shriftga** o'tib o'tamiz va yana {\bf qalin} shriftga o'tib} ilk holatga qaytamiz.

Bu misoldagi \it buyrug'i kursivni bildiradi. Endi misolimizga izoh bersak: Birinchi ochiluvchi figurali qavs undan keying birinchi so'zni tashlab keyingi so'zdan boshlab \bf ni yozdik, aslida \bf dan oldin yozish ham mumkin edi. Har ikkala holda ham bir xil natija qaytariladi. bu yozgan \bf imiz to \it gacha ta'sir qiladi. kit esa {gacha va } dan keyin }gacha. Chunki} shriflarni ichki guruhlashning oxiri. Oxirgi yopiluvchi figurali qavsdan keyin esa Latex sinf bilan e'lon qilingan standart shriflga qaytadi. Yana bir oddiyroq misol ko'ramiz:

Quyidagi P^n da Quyidagi {\bf P}^n dan nomalumni soni n\$. Endi yana bir buyruq \mit buyrug'i haqida. Bu buyruq standart "matematik kursiv"ga o'tish uchun xizmat qiladi. Bu buyruqdan kamdan kam foydalanilsada ayrim masalalarda juda qo'l keladi. Masalan formulalarda ko'p ishlatiladigan grek harflarini qiya yozishda. Buni \mit buyrug'ini ichki guruhlash orqali yozish mumkin.

$$\sum_a^X = C \quad \text{\mit\Sigma}^X_a=C$$

Endi LATEXning keyingi shrifti "Kalligrafik shrift"ga o'tamiz. Bu turdagi shriftni faqat matematik formulalarga qo'llash mumkin. Shuningdek bu shrift faqat lotin harflarini tushuna oladi. Bu shriftni ishlatish uchun \cal buyrug'idan foydalaniladi. Misol:

Urinma egri chiziqni X ta Urinma egri chiziqni \$X\$ ta bo'lakka bo'lsa demak: T_x yoki T_x demak: ~{\cal T}_X yoki \$T_X\$

Bu yerda ~ belgisi agar yozuvlar bir qatorga sig'masa keyingi qator boshidan formula boshlanmasligi uchun qo'llaniladi. Agar shunday vaziyat bo'lib qolsa formuladan oldingi so'zni keyingi qatorga tushiradi yoki so'zni bir qismini o'tkazadi. Yuqoridagi misolda "de-" yuqori qator qolib "mak: T_x yoki T_x" pastki qatorga tushadi. Hujjatdagi barcha lotin harflari yoki matematik formulalar va grek harflariga birdaniga bir xil parametr berish mumkin. Odatda matematik formulalar kursiv holda chiqarilishini bilamiz, agar barcha matematik formulalar va grek harflariga qalin shriftni bermoqchi bo'lsak \boldmath buyrug'idan foydalanamiz. Latexda formulaga matn kiritishni to'g'ridan to'g'ri amalga oshirib bo'lmaydi.

$$\text{barchalar uchun } \sqrt{x^2} = x$$

SS
 {\rm barcha} x {\rm lar uchun} \sqrt{x^2}=x
 SS

Bu yerda \rm matn shriftini kerakli ko‘rinishga keltirsada, lekin so‘zlar orasidagi bo‘sh joy(пробел) larni yo‘qota olmaydi.

Nazorat savollari

1. Matematik formulalar LaTeX dasturiga qanday kiritiladi
2. Formulaga nomer qo‘yish qanday amalga oshiriladi
3. Matematik formulalarda odatiy va noodatiy shriftlar haqida ma’lumot bering

3.3.- Murakkab formulalar

Reja:

1. Formulada matn yozish
2. Qavslar o‘lchamini o‘zgartirish
3. Matritsa

Kalit so‘zlar: qquad, mbox, bigl, biggl, bigr, left ,right, overrightarrow, widetilde

Formulada matn yozish

Matematik formulada matn yozish \mbox buyrug‘i orqali amalga oshiriladi. Formula va matn orasida bo‘sh joylar hosil qilish uchun esa \qqquad dan foydalaniladi

barcha x lar uchun $\sqrt{x^2} = x$ $\mbox{\barcha }x\$\$ \text{ lar uchun} \qqquad \sqrt{x^2} = x$

Bu yerda \mbox buyrug‘i matn kursivda chiqmasligi, so‘zlar orasidagi bo‘sh joylar va odatiy shriftda chiqishini ta’minlaydi. Shuningdek \mbox da shrift turini ham berish mumkin.

barcha x lar uchun $\sqrt{x^2} = x$ $\mbox{\barcha }x\$\$ \text{ lar uchun} \qqquad \sqrt{x^2} = x$

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki \mbox buyrug‘i shrift o‘lchamini o‘zgartirmaydi. Buyruq ichidagi matn o‘lchami avtomatik tarzda aniqlanadi.

Qavslar o'Ichamini o'zgartirish

Odatiy murakkab bo'lmagan formulalarda qavslar o'Ichami avtomatik tarzda aniqlanadi. Lekin murakkab formulalarda maxsus buyruqlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan quyidagi

$$e = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{n}\right)^n$$

formulada. Agar biz odatdagidek qavs yozmoqchi bo'lsak quyidagicha yozamiz.

$$e = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{n}\right)^n$$

```

SS
e=\lim_{n\to\infty}
(
1+\frac{1}{n}
)^n
SS

```

Ko'rinib turibdiki bunday ko'rinish uncha qulay emas. Qavslar o'Ichami bilan qavslar ichidagi formula o'Ichami orasidagi farq juda katta. Bunday vaziyatlarda qavs ichidagi formula bilan moslab olish uchun ochiluvchi qavsda `\left`, yopiluvchi qavsda esa `\right` dan foydalaniladi. Yuqoridagi misolimizda bu buyruqlarni qo'llasak

$$e = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{n}\right)^n$$

```

SS
e=\lim_{n\to\infty}
\left(
1+\frac{1}{n}
\right)^n
SS

```

Bu yerda `\frac` buyrug'i kasrlarni yozish uchun ishlatiladi. Yuqoridagi misolimizdagi `\left` va `\right` buyruqlari orasiga yana bir necha `\left` va `\right` larni yozish mumkin. `\left` va `\right` buyruqlarini nafaqat (va) ko'rinishdagi qavslarda balki, boshqa bir necha ko'rinishdagi belgilarda ham ishlatish mumkin. Quyida `\left` va `\right` buyruqlari yordamida o'Ichami avtomatik o'zgaradigan belgilar ro'yhati TEXdagi buyruq kodlari bilan keltirilgan:

{	()	}	[[
}]	\	\]	\]
\lfloor	\rfloor	\lceil	\rceil	\langle	\rangle
\rceil	\langle	\rangle	/	/	/
\backslash	\backslash	\backslash	\backslash	\backslash	\backslash

Bu yerdagi `\left\langle` o'miga `\left<` yozish mumkin. Xuddi shunday `\right\rangle` o'miga ham `\right>` yozish mumkin. Lekin boshqa vaziyatlarda `<` bilan `\langle` bir ma'noda kelmaydi. Ayrim misollarda bitta

qavs qatnashadi. Ularni formulaga moslash uchun \left yoki \right buyruqlaridan keyin nuqta qo'yiladi, bunda nuqta natijaviy sahifada ko'rinmaydi. Ikki va undan ortiq nuqtalar esa natijaviy sahifaga chiqariladi. Masalan:

$$M(f) = \int_a^b f(x) dx / (b - a)$$

```


$$M(f) = \left. \int_a^b f(x) dx \right/ (b - a)$$


```

Bu misoldagi \, buyrug'i f(x) va dx orasida bo'sh joy tashlaydi. Avtomatik tarzda joy tashlanmaganligi sababli biz bu buyruqdan foydalanamiz. Yana bir misol:

$$\int_a^b \frac{1}{2} (1+x)^{-3/2} = -\frac{1}{\sqrt{1+x}} \Big|_a^b$$

```


$$\int_a^b \frac{1}{2} (1+x)^{-3/2} = -\frac{1}{\sqrt{1+x}} \Big|_a^b$$


```

Biz yuqorida ko'rib o'tgan misollarning barchasidan ko'rinib turibdiki, \left va \right buyruqlari faqat qavslarni formulaga moslab beradi. Ayrim misollarda bu buyruqlar yetarlicha qulayliklarga ega emasligi ko'rinadi. Masalan:

$$||x + 1| - |x - 1||$$

```


$$||x + 1| - |x - 1||$$


```

Bu misolda barcha modul belgilari bir xil bo'lganligi sababli, ularning qaysi biri ichki modul va qaysi biri tashqi modul ekanligi bilinmaydi. Ajralib turishi uchun asosiy modul belgisini balandroq qilib yozish kerak. Yana bir \left va \right ga doir misol:

$$\left(\sum_{k=1}^n x^k \right)^2$$

```


$$\left( \sum_{k=1}^n x^k \right)^2$$


```

Bu misolda yig'indi formulasidagi qavslar juda baland yozilgan va albatta bu ko'rinishga ta'sir qiladi. Mana shu muammolarni hal qilishda quyidagi Tex buyruqlaridan foydalanish mumkin. Chap qavslar uchun \bigl , \Bigl , \biggl , \Biggl buyruqlaridan , o'ng qavslar uchun \bigr ,

`\Bigr` , `\biggr` , `\Biggr` buyruqlaridan foydalanish mumkin. Bu buyruqlarning yozilish ham xuddi `\left` va `\right` ga kabi. Masalan:

$$\left| |x+1| - |x-1| \right| \quad \S \Bigl| |x+1|-|x-1| \Bigl| \S$$

Yig'indi haqidagi misolimiz esa quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$\left(\sum_{k=1}^n x^k \right)^2 \quad \S \S$$

$$\Bigl(\sum_{k=1}^n x^k \Bigr)^2 \quad \S \S$$

Bu buyruqlardan foydalanganda qavslar shriftini avtomatik tarzda sinf va unga mos xususiyatlarga ko'ra tanlaydi. Shuningdek hujjat yozuvi o'lchamiga mos tarzda chiqaradi. Masalan:hujjat o'lchami 11pt yoki 12pt bo'lsa qavslarni ham shunga mos tarzda qalinroq shriftda chiqaradi. O'lcham shrifti va o'lchamini o'zgartirish uchun endi boshqa buyruqlardan foydalanish kerak.

Belgilarga doir chizishlar

Ba'zi hollarda belgilarning ustiga chizishga to'g'ri keladi. Masalan tegishlilik belgisida. Bu belgi ustiga “/”(slesh) belgisi chizib qo'yilsa tegishli emas ma'nosini beradi. Bu belgini `\not` buyrug'i orqali qo'yish mumkin. Masalan:

Ko'pchilik $\{x : x \not\in x\}$ ni ma'nosini tushunishmaydi.

Bu Russel paradoksi.

Ko'pchilik $\{x : x \notin \{x\}\}$ ni ma'nosini tushunishmaydi. Bu Russel paradoksi.

Agar teskari tegishli emaslik belgisini qo'yimoqchi bo'lsak $\{x : x \notin \{x\}\}$ yozish yoki $\{x : x \notin x\}$ kabi yozish mumkin. Lekin bu ikki ko'rinishdagi `\notin` va `\notin` bir xil ma'noda qo'llanilmaydi.

Satr usti belgilari

Formula yozish jarayonida bizga formulada ishlatilgan harflar yoki formulaning biror qismini ajratib ko'rsatish uchun shu qism ustida qandaydir o'zgartirishlar qilishga to'g'ri keladi. Bunday o'zgarishlar

ajratilgan qism ustida chiziq chizish, qismni ustidan qandaydir chiziq chizishlar va hokazolar bo'lishi mumkin. Aytilganlardan birinchisi ya'ni

Xalqaro qoidaga ko'ra

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = 10^n a_n + \dots + a_0.$$

yoziladi

$$\{a_n \dots a_0\} = 10^n a_n + \dots + a_0.$$

yoziladi

Satr usti belgilariga doir qo'shimcha buyruqlar a harfi misolida quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

<code>\hat a</code>	<code>â</code>	<code>\check a</code>	<code>ȁ</code>
<code>\tilde a</code>	<code>ã</code>	<code>\acute a</code>	<code>á</code>
<code>\grave a</code>	<code>à</code>	<code>\dot a</code>	<code>ȁ</code>
<code>\ddot a</code>	<code>â</code>	<code>\breve a</code>	<code>ā</code>
<code>\bar a</code>	<code>ā</code>	<code>\vec a</code>	<code>→</code>

Bu buyruqlar orasida `\bar` buyrug'i `\overline` ga o'xshaydi. Agar i va j harflarini ustiga jadvaldagi belgilardan birortasini qo'yimoqchi bo'lsangiz u chiroyli ko'rinish kasb etmaydi. Buning o'rniga "boshqa zarur" belgilar jadvalimizdagi `\imath` va `\jmath` belgilarini kiritish chiroyliroq natija beradi.

bunday ko'rinishdagi i chiroyli emas

bunday ko'rinishdagi i esa chiroyli

bunday ko'rinishdagi `\tilde i`

chiroyli emas\\ bunday ko'rinishdagi `\tilde\imath` esa chiroyli

Hozirgi misolimizda faqat bitta harf ustiga belgi qo'yildi. Aslida har bir satr va formulaga ham belgi qo'yish mumkin. Masalan `\hat{a+b}` yozsak `a+b` ko'rinish hosil bo'ladi. Bunday ko'rinish chiroyli emas, shuning uchun `\widehat` yozsak belgi formula bo'yicha yoyiladi.

quyidagi $\widehat{f * g} = \hat{f} \cdot \hat{g}$ teng kuchli

quyidagi $\widehat{f * g} = \hat{f} \cdot \hat{g}$

`\fcdot\hat g` teng kuchli

Bunday yo'l bilan juda chiroyli ko'rinishlar hosil qilish mumkin. Masalan `\widetilde` buyrug'i bilan formula ustida to'lqin hosil qilish va shunga o'xshash boshqa ko'rinishlar. Shuningdek satr va formulalar ustiga yo'nalish chiziqlarini ham qo'yish mumkin. Masalan

`\overrightarrow` buyrug'i satr ustiga o'ngga yo'nalgan chiziq chizadi.

Bu vektor \overrightarrow{AB} .

Bu

vektor

\overrightarrow{AB} .

Agar \overrightarrow{AB} buyrug'i o'ngga yo'nalgan chiziq chizsa, demak \overleftarrow{BA} chapga yo'nalgan chiziq chizadi. Boshqa shu kabi buyruqlar bu buyruqlar darajasida asosiy hisoblanmaganligi sababli ularga to'xtalmaymiz

Matritsalar

Latex yordamida matritsa yozish uchun bizga array tanasi(\begin{array} va \end{array} bu Latexdagi tana) kerak bo'ladi. Matritsa tanasini tushunish uchun avval kichkina misol ko'rib o'tamiz. Demak boshladik:

```


$$\begin{array}{cccc} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{array}$$


```

Mana matritsa ham hosil qilindi. Endi undagi bizga notanish bo'lgan buyruq va belgilar bilan tanishamiz. Matritsalar qator va ustunlardan iborat bo'ladi. Yangi qatorga o'tish $\backslash\backslash$ buyrug'i orqali (oxirgi qatorga shart emas) amalga oshiriladi. Ustunlar orasidagi farqni aniqlash uchun $\&$ belgisidan foydalaniladi. Shuningdek bu belgi matritsa turli ustunlarida turli uzunlikdagi qiymatlar bo'lganda ustunlar orasida vujudga keladigan nomutanosibliklarni ham yo'qotadi. Matritsa yozishda array tanasi(\begin{array} , array figurali qavs ichiga yoziladi) ochilgandan so'ng, matritsa tuzilishini aniqlash boshlanadi, ya'ni matritsa nechta ustundan iboratligi. Yuqoridagi misolimizda 4 ta ustun bo'lgani uchun biz $\{cccc\}$ yozdik. Figurali qavslar ichidagi 4 ta harf matritsa 4 ta ustundan iboratligini, c harfi esa ustunni markaz (inglizcha – center ning bosh harfi) bo'yicha tartiblanganligini bildiradi. Bu misolda biz 4 ta ustunning ham markaz bo'yicha tartiblanishini ko'rdik, aslida c harfidan boshqa yana l yoki r harflarini ham ishlatishimiz mumkin edi. Bunda l harfi (inglizcha – left ning bosh harfi) ustunni chap tomon bo'yicha tartiblaydi, r esa

(inglizcha – right ning bosh harfi) ustunni o'ng tomon bo'yicha tartiblaydi. Biz yuqoridagi misolimizning uchinchi qatorida yana vertikal ko'pnuqtalar yozish uchun \vdots va diagonal nuqtalar yozish uchun \ddots buyruqlaridan foyalandik. Bu buyruqlardan nafaqat matritsalar yozishda balki istalgan matematik formulalarni yozishda ham foydalanish mumkin. Matritsa qanday yozilishini ko'rdik. Lekin bu matritsamiz shunchaki bir nechta qatorida ketma-ket turgan ro'yhatga o'xshaydi. Odatda matritsalar turli xil ko'rinishdagi qavslar bilan birga yoziladi. Agar biz ham o'z matritsamizda qavslardan foydalanmoqchi bo'lsak, \begin{array} dan oldin ochiluvchi qavsni (masalan "((" ni) \left(ko'rinishda, yopiluvchini esa \end{array} dan keyin \right) ko'rinishda yozish mumkin. Yuqoridagi misol uchun bu quyidagicha bo'ladi:

$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$	<pre>\left(\begin{array}{clrc} a_{11}&a_{12}&&\&\dots&&a_{1n}\\ a_{21}&a_{22}&&\&\dots&&a_{2n}\\ \vdots&\vdots&&\&\ddots&&\vdots\\ a_{n1}&a_{n2}&&\&\dots&&a_{nn} \end{array} \right)</pre>
---	--

Agar matritsa faqat bir qatoridan iborat bo'lsa uni matritsa yozish usuli bilan yozish shart emas, bunday hollarda oddiy qatorga yozuv yozgandek yozuvlarni bo'sh joy (probel) bilan ajratib yozish, matritsa yozish usuli bilan yozishdan ko'ra ancha qulayroq va osonroq. Matritsa yozish tanasi, ya'ni array tanasi bilan nafaqat turli xil matritsalar balki, turli xil matematik qatorlar ham yozish mumkin. Masalan Paskal uchburchagi:

```

      1      1
     1  2   1
    1  3  3  1
   1  4  6  4  1
  1  5 10 10  5  1
 1  1  5 10 10  5  1  1
```

Bu uchburchakning kodi esa quyidagicha:

```

$$
\begin{array}{cccccccc}
&&&&&&&&& \\
&&&&&& 1 &&& \\
&&&& 1 && 2 &&& 1 \\
&&& 1 && 3 && 3 && 1 \\
&& 1 && 4 && 6 && 4 && 1 \\
 1 && 5 && 10 && 10 && 5 && 1
\end{array}
$$
```

Bu yerda “&” belgisi ustunlar o‘rtasida bo‘sh joy tashlash uchun ishlatiladi. Agar matritsada satr tugagandan keyin qator oxirigacha bo‘sh joy qo‘ymoqchi bo‘lsangiz u holda, qator tugaguncha “&” dan foydalanish shart emas. Shunchaki \ dan foydalanish kifoya. Bu belgi keyingi qatorga o‘tishni ta‘minlaydi va avtomatik tarzda oldingi qatorning qolgan qismi bo‘sh qolgandek ko‘rinadi.

Yana bir misol: Endi tenglamalar sistemasiga doir, array tanasi yordamida tuzilgan:

$$\begin{cases} x^2 + y^2 = 7 \\ x + y = 3. \end{cases}$$

Bu misolda birinchi ustun chap tomonga nisbatan tartiblangan, ikkinchi ustun esa markazga nisbatan tartiblangan va uchinchi ustun o‘ng tomonga nisbatan tartiblangan. Matritsa tuzilishini aniqlash uchun yozilgan {rc1} dan bilish mumkin. Figurali qavsni yozish uchun foydalanilgan \left va \right buyruqlarida ochiluvchi figurali qavs \left\ ko‘rinishda yozilgan va bu qavsni butun formula bo‘ylab qo‘llaganda yopiluvchi qavs bo‘lmasligi uchun yopiluvchi qavsda \right bilan birga nuqtadan foydalanilgan. Agar matritsani alohida nomerlamoqchi bo‘lsangiz, eqnarray tanasidan foydalanishingiz mumkin. Bunda xuddi formulaga nomer qo‘yishda foydalaniladigan equation tanasi kabi formula nomeri avtomatik tarzda aniqlanadi. Agar matritsaga qo‘yilgan nomerdan yo‘llanma orqali hujjatning qaysidir qismida foydalanmoqchi bo‘lsak , u holda \label orqali bu nomerga biror nom qo‘yib, yo‘llanmada chaqirishda \ref funksiyasiga nomer nomini ko‘rsatish orqali foydalanish mumkin. Nomer joylashgan sahifaga yo‘llanma berish uchun \pageref funksiyasidan foydalanamiz.

Nazorat savollari

1. Qavslar o‘lchamini o‘zgartirish qanday amalga oshiriladi?
2. Qquad buyrug‘ining vazifasi nimadan iborat?
3. Mbox buyrug‘ining vazifasi nimadan iborat?
4. overrightrightarrow buyrug‘ining vazifasi nimadan iborat?
5. Widetilde buyrug‘ining vazifasi nimadan iborat?

3.4.- Matematik formulalar bilan ishlash imkoniyatlari

Reja:

1. Matematik formulalar yozishda turli buyruqlar imkoniyatlari
2. Oddiy hodisalar
3. Formulada ishlatiladigan belgilar o'Ichami
4. Ro'yxatlar

Kalit so'zlar: Displaymath, mathrm, textrm, displaystyle, textstyle, scriptstyle, scriptscriptstyle, vdots , ddots, choose

Matematik formulalar yozishda turli buyruqlar imkoniyatlari

Matematik formulalar yozishda Latex turli standart belgilardan tashqari formula yozishni qulaylashtirish uchun maxsus belgili buyruqlarni ham taqdim etadi. Biz odatda matn orasiga formula yozish uchun formula yozishdan oldin bitta dollar belgisi va formuladan so'ng yana bir dollar belgisini qo'yamiz. Aslida bu ishni $\left($ (formula boshida) va $\right)$ (formula oxirida) buyruqlar bilan ham qilish mumkin. Matematik formula kiritishning yana bir varianti bu formulani \begin{math} va \end{math} orasida yozishdir. Shuningdek bu usul yordamida formula ichida so'zlarni ham yozish mumkin

$2 \times 2 = 4$	$\$2\times 2=4\$$
yoki	yoki
$2 \times 2 = 4$	$\sqrt{2\times 2=4}$

Latex formula yozishda nafaqat juft dollar belgisi yoki yuqorida ko'rsatib o'tilgan buyruqlardan balki $\left[$ (formula boshida) va $\right]$ (formula oxirida) buyruqlaridan ham foydalanadi. Shuningdek formulalar kiritishning boshqa yo'li ham mavjud. Bu formulani $\begin{displaymath}$ va $\end{displaymath}$ orasiga yozishdir. Bu usulni ikkitalik dollar belgisi o'rniga ishlatish mumkin. Latex yaratuvchisi Lesli Lamportning aytishicha formulalarni yozishda yuqoridagi "ochiluvchi" va "yopiluvchi" buyruqlardan foydalanish, hujjatdagi xatolarni topish uchun juda qulay.

Oddiy hodisalar

Latexda formulani chiroyli ko'rinishda yozish uchun quyidagi oddiy hodisalarni bilish muhim.

-Formula yozishda agar bo‘lish belgisi qatnashsa iloji boricha kasr ko‘rinishda(kasr ko‘rinishda yozish uchun maxsus \frac buyrug‘idan foydalanish mumkin) yozishga harakat qiling.

-Agar matn quyi indeksida yozishga to‘g‘ri kelib qolsa ,yuqori indeks bilan teng parametrda yozishga harakat qiling.

-Agar yuqori yoki quyi indekslar mavjud bo‘lsa ularni joylashtirishda { va } belgilaridan foydalaning. Formulada yuqori quyi indeksni joylashtirishda Latexning maxsus buyrug‘i \atop dan foydalanish mumkin.

Ilgari Γ_{ij}^k
 ko‘rinishda yozilgan bo‘lsa
 hozir $\left\{ \begin{matrix} ij \\ k \end{matrix} \right\}$
 ko‘rinishda yoziladi.

Ilgari Γ_{ij}^k \\
 ko‘rinishda yozilgan bo‘lsa \\
 hozir $\left\{ ij \atop k \right\}$

Biz bu yerda figurali qavslarni ichidagi formula o‘lchamini bilan matn o‘lchamiga moslashtirish uchun yana \left va \right dan foydalandik. Ko‘pincha yuqori va quyi indeks yozishda, yuqoridagi misol kabi $\left(, \atop va \right)$ buyruqlaridan foydalaniladi. Bunday vaziyatlarda uncha ko‘p foydalanilmasada yana bir buyruq bilan tanishib o‘tishni lozim topdik. Bu \choose buyrug‘i. Quyidagi misolda shu buyruq ko‘rsatilgan:

$$\binom{n}{k} = \frac{n!}{k!(n-k)!}$$

\$\$
 $\{n\choose k\}=\frac{n!}{k!(n-k)!}$
 \$\$

Bu yerda foydalanganimiz \choose buyrug‘i ko‘rib turganimizdek “ochiluvchi” va “yopiluvchi” qavslar bilan nomutanosiblik keltirib chiqaradi. Ya’ni bu buyruq avval “ochiluvchi” va “yopiluvchi” qavslarni aniqlab so‘ngra yuqori va quyi indeksni uni ichiga yozadi, \atop da esa avval yuqori va quyi indekslar aniqlanib, so‘ngra shularga mos qavslar qo‘yib chiqiladi. Albatta barcha vaziyatlarda ham formula yozishda qavslar kerak bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda \choose buyrug‘i qulayroq. Shuning uchun ham har ikkala buyruqning o‘z o‘rni bor. Endi yana bir ajoyib hodisalardan biri bo‘lgan formula yozilgan qator ustiga biror belgi va yoki shunga o‘xshash yozuvlar yozish. Bunday ko‘rinishlar Latexning \stackrel buyrug‘i yordamida hosil qilinadi. Bu buyruq ikkita qismdan iborat:birinchisi qatorni yozish,ikkinchisi qator ustini yozish. Quyidagi misol yordamida bu buyruq haqida tasavvur hosil qilishingiz mumkin:

$$A \xrightarrow{f} B$$

$\$A\stackrel{f}{\longrightarrow}B\$$

Qator ostida gorizontall figurall qavs yozish uchun `\underbrace` buyrug'idan foydalaniladi. Albatta bu buyruqdan keyin qatorni yana davom ettirish mumkin.

$$\underbrace{1+3+5+7+\dots+2n-1}_{n \text{ ta}} = n^2$$

`\$\$`
`\underbrace{1+3+5+7+`
`\cdots+2n-1}_{\mbox{Sn ta}}=n^2`
`\$\$`

Qator ustiga gorizontall figurall qavs yozish uchun `\overbrace` buyrug'idan foydalaniladi. Bir qatorning ham yuqori qismiga, ham ostki qismiga gorizontall figurall qavs yozish mumkin.

$$\overbrace{a+b+\dots+z+1+\dots+10}^{36}$$

26

`\$\$`
`\overbrace{\underbrace{`
`a+b+\cdots+z`
`}_{26}+1+`
`\cdots+10}^{36}`
`\$\$`

Formulada ishlatiladigan belgilar o'lchami

Formular yozishda odatda formula darajasi, indeksi, qavslar va h.k lar shriftini asosiy formula shriftidan ajratib yoziladi. Tex bunday hollarda avtomatik tarzda juda kichik o'lcham oladi. Agar siz formula yozish jarayonida darajaga matn kiritmoqchi bo'lsangiz `\text{rm}` buyrug'idan foydalanishingiz mumkin. Bunda matn yozish rejimiga o'tib yana qaytib chiqish sodir bo'ladi. Bu albatta juda noqulay. Bunday vaziyatlarda `\mathrm` dan foydalanish qulayroq. Bu buyruq qisqa yozuvlarda qo'l keladi. Chunki `\mathrm` buyrug'i bo'sh joy (probel)larni o'qimaydi. Bunday noqulayliklarni bartaraf etishda bizga stillar yordam beradi. Matematik shriftlarni o'rnatishda 4 ta buyruqdan foydalanish mumkin. `\displaystyle` (stilni moslash) `\textstyle` (matn stili) `\scriptstyle` (indeksda foydalanish uchun) `\scriptscriptstyle` (indeksning indeksida foydalanish uchun) Quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi. `\displaystyle (123)`, `\textstyle (123)`, `\scriptstyle (123)` `\scriptscriptstyle (123)`

$$\frac{7}{25} = \frac{1}{3 + \frac{1}{1 + \frac{1}{1 + \frac{1}{3}}}}$$

Stillar yordamida bosil qilingan formula:

```

SS
\frac{7}{25}=
\frac{1}{3+\frac{1}{1+\frac{1}{1+\frac{1}{3}}}}
3+\frac{1}{1+\frac{1}{3}}
1+\frac{1}{3}}
1+\frac{1}{3}} SS

```

Endi xuddi shu formulani stil ishlatmagan holda ko‘ramiz:

$$\frac{7}{25} = \frac{1}{3 + \frac{1}{1 + \frac{1}{1 + \frac{1}{3}}}}$$

```

SS
\frac{7}{25}=
\frac{1}{3+\frac{1}{1+\frac{1}{1+\frac{1}{3}}}}
3+\frac{1}{1+\frac{1}{3}}
1+\frac{1}{3}}
1+\frac{1}{3}} SS

```

$$\text{corr}(X, Y) = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\left[\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2 \sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2 \right]^{1/2}}$$

Matematik shriftlarni ishlatish bo‘yicha yana bir misol:

```

\begin{displaymath}
\mathop{\mathrm{corr}}(X,Y)=
\frac{\sum_{i=1}^n(x_i-\overline{x})(y_i-\overline{y})}{\biggl[\sum_{i=1}^n(x_i-\overline{x})^2\sum_{i=1}^n(y_i-\overline{y})^2\biggr]^{1/2}}
\end{displaymath}

```

Bu yerda yozilgan displaymath tanasi murakkab va ko‘p qatorli formulalar yozishda ishlatiladi. Shuningdek bu yerda ishlatilgan kasr maxrajidagi ochiluvchi to‘rtburchak qavs uchun ishlatilgan \biggl[va yopiluvchi qavs uchun \biggr] o‘rniga Texning standart buyruqlari bo‘lgan \left[va \right] dan ham foydalanish mumkin. Bu kodda

ishlatilgan \mathop buyrug'i formula orasida matn yozish uchun ishlatiladi. \mathop va \mathrm buyruqlari haqida keyingi qismlarda ma'lumot beriladi.

Ro'yxatlar

LATEX-dagi oddiy ro'yxatning tuzilishi quyidagicha:

```
\begin{nomi}
\item[variant] элемент 1,
\item[varinat] элемент 2,
...
\end{nomi}
```

Belgilangan kod, sarlavhali ro'yxatlarni yaratish uchun ishlatiladi. Raqamlangan ro'yxatlar uchun sanoq muhitidan foydalanamiz. Agar ro'yxat tuzilsa, unda har bir element o'z nomiga ega bo'lsa, unda tavsiflash muhiti qo'llaniladi. Uchala holatda ham ro'yxat tanasining har bir elementi buyruq bilan boshlanadi \item , ixtiyoriy dalillarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, tavsiflash muhiti uchun mos keladigan elementlarning sarlavhalari tanlov sifatida ishlatiladi.

Birinci buyruqdan oldin, ro'yxatda faqat shriftni boshqarish buyruqlari va shunga o'xshashlar bo'lishi mumkin, ammo ular bo'lmazligi kerak matn. Ro'yxatlar ichma-ichma joylashishi mumkin. Ro'yxatlarni joylashish 4 ga bo'linadi. Tekshirish varaqalariga misollar quyida keltirilgan:

Belgilangan ro'yxat	Tartibli ro'yxat	Ro'yxat sarlavhasi
<ul style="list-style-type: none"> • 1-element • 2-element 	<ol style="list-style-type: none"> 1. 1-element 2. 2-element 	<p>Ro'yxat sarlavhasi.1-element</p> <p>Ro'yxat sarlavhasi.1-element</p>

Nazorat savollari

6. Matematik formulalar yozishda qanday buyruqlardan foydalaniladi?
7. vdots buyrugi qanday vazifani bajaradi?
8. Ddots buyrugi qanday vazifani bajaradi?
9. Choose buyrugi qanday vazifani bajaradi?

3.5.- Latex dasturlash tizimida taqdimotlar

Reja:

1. LATEX da taqdimotlar yaratish

2. Frem sahifalarini yaratish

Kalit so'zlar: freymlar, documentclass, background

LATEX da taqdimotlar yaratish

Kengaytirilgan LaTeX-da taqdimotlarni yaratish uchun barcha zarur vositalar mavjud. Bu sizga bir nechta shaxsiy paketlarni o'rnatishingiz kerakligini anglatadi, ammo agar dastur to'g'ri sozlangan bo'lsa, ular avtomatik ravishda o'rnatiladi.

